O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING FARG‘ONA MINTAQAVIY FILIALI

RAFIK AXMEDOV

SOZANDALAR ANSAMBLI

O‘quv qo‘llanma

5151600 - Xalq ijodiyoti: ashula va raqs

Qo‘qon - 2023

Sozandalar ansambli. Rafik Axmedov

Annotatsiya: Mazkur o‘quv qo‘llanmada o‘zbek milliy cholg‘u asboblari, ularning kelib chiqish tarixi, ustoz san’atkorlar va ularning ijro yo‘llari, cholg‘u asboblarda ijro qilingan asarlar to‘g‘risida keng ma’lumot berib o‘tilgan. O‘quv qo‘llanmada o‘zbek mumtoz shashmaqomning mushkulot cholg‘u qismiga kiritilgan asarlardan namunalar keltirilgan. O‘quv qo‘llanma 5151600 - Xalq ijodiyoti: ashula va raqs ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun mo‘ljallangan.

Abstract: This textbook provides detailed information about the Uzbek national musical instruments, the history of their origin, master artists and their ways of performance, the works performed on musical instruments. desired The textbook contains examples of works included in the difficult musical part of the Uzbek classical shashmaqom. The textbook is designed for students majoring in 5151600 - Folk Art: Singing and Dance.

Аннотация: В данном учебном пособии представлена подробная информатсия об узбекских натсионалных музыкалных инструментах, истории их происхождения, мастерах-исполнителях и способах их исполнения, произведениях, исполняемых на музыкалных инструментах. Учебное пособие содержит примеры произведений, входящих в сложную музыкалную част узбекского классического шашмакома. Учебное пособие рассчитан на студентов спесиалностей 5151600 - Народное творчество: пение и тансы.

Mas’ul muharrir:

Shamsiddin Usmonov - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali, professori

Taqrizchilar:

Karim Yuldashev - O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali professori

Sultonali Mannopov - Farg‘ona davlat universiteti, professor, O‘zbekiston xalq artisti

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etildi

KIRISH

Musiqa san’ati inson ruhiyatiga ko‘tarinkilik, huzur bag‘ishlash bilan bir qatorda ma’naviy ozuqa berishi bilan ham boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Tarixdan ma’lumki, ilm va ma’rifatda dong taratgan allomalarimiz diniy hamda dunyoviy ilmlar qatorida musiqa ilmini ham batafsil o‘rganib, uni chuqur egallashgan. O‘rta Osiyo xalqlari hayotida musiqaning beqiyos o‘rni va ahamiyatini musiqa faniga asos solgan Sharq qomusiy mutafakkirlari chuqur anglab yetishgan. Shaxsiy va jamoaviy ijodning o‘rni, ta’siri, poeziya va musiqaning bir-biri bilan tabiiy omuxtalashish jarayonlariga oid muammolarni dastlab har tomonlama ishlab chiqqan olimlar Abu Nasr Forobiy (837-950) va Abu Ali ibn Sino (980-1037) edilar. Shu jumladan, Abu Nasr Forobiy musiqa og‘zaki kasbiy ijod masalalariga bag‘ishlangan “Sharq musiqa nazariyasiga oid bir muncha jiddiy asarlar”[1] asarini yaratgan. Ushbu asar Forobiy ilmiy merosida muhim o‘rin tutadi. Uning asarlari orasida “Kitob fi ixso al-iyqo‘” (“Ritmlar turkumlari haqida kitob”), “Kitob fin nakra muzofa ilal-iyqo” (“Ritm bilan bog‘langan ohanglar haqidagi kitob”) alohida o‘rin tutadi. Musiqiy-ijodiy jarayon “Kitob ul-musiqa alkabir” (“Musiqa haqida katta kitob”), “Kalom fil musiqiy” (“Musiqa haqida o‘ylar”), fundamental tadqiqot “Kitob fi ixso al-ulum va at-ta’rif” (“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”) asarlarida bosh muammo sifatida o‘rganilgan. Forobiy musiqani uch turga ajratadi: lazzat yetkazadigan, his-hayajon ifodalovchi va tasavvur uyg‘otuvchi. Ayni paytda Forobiy uch xususiyatning barchasiga ega bo‘lgan musiqa, shubhasiz, nisbatan yetuk bo‘ladi.

Shu jumladan, Forobiyning eng yaqin izdoshi Abu Ali ibn Sino asarlarida ham musiqa ilmi haqida qimmatli fikrlarni uchratishimiz mumkin. Yosh Sino uchun Forobiy asarlari o‘zini qiziqtirgan fanlar, jumladan, musiqa fanini bilishda ham kalit vazifasini o‘tagan edi. Ibn Sinoning “Musiqa fani haqidagi risola”sidagi boblardan biri ritm, she’r hamda she’riy vaznlar masalasiga bag‘ishlangan edi. Forobiyga o‘xshab, Ibn Sino ham she’riy janr va shakllarning urf-odatlariga bevosita bog‘liq ekanligini hamda ularning boyitishga intilishini ta’kidlaydi.[2] Bundan ko‘rinib turibdiki, musiqa ilmini egallash o‘ziga xos kategoriya bo‘lib, nafaqat o‘rta asr olimlarining komillikka erishishida muhim omil bo‘lib

[1] Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. Тошкент: Фан, 1967. 100 б.
[2] Ибн Сино. Свод науки о музыке. пер. А.В.Сагдеева. Музыкалная эстетика стран Востока. –Москва: 1967. - 126 б.

xizmat qilgan, balki bugingi avlod uchun ham dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Namangan viloyatiga tashrifi davomida xalq deputatlari viloyat Kengashida yana bir bor madaniyatni rivojlantirish va shu asnoda davlatimiz iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash bo‘yicha nihoyatda hayotiy va dolzarb yo‘nalishni belgilab berdilar. Unga ko‘ra endilikda har bir umumta’lim maktabi o‘quvchisi ta’lim muassasasini fizika, matematika va boshqa ko‘plab fanlar qatorida biron musiqiy cholg‘uni chalishni o‘rganganlik to‘g‘risidagi bahosi bilan bitiradi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish orqali insonlarning turmush darajasini ko‘tarish jarayonini boshdan kechirayotganimizni, ammo madaniyat va san’at sohasini yuksaltirmay turib, ijobiy natijalarga erishib bo‘lmasligini ta’kidlab o‘tdilar. Davlatimiz rahbarining umumta’lim maktablari dasturiga musiqiy cholg‘uni o‘rganish fanini kiritish borasidagi taklifi butun bir madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim tizimini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu soha vakillariga ko‘tarinki ruh bilan birga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Soha vakillaridan bilim va mahoratlarini oshirishda tinimsiz izlanish olib borishlarini, bor bilimlarini yosh avlodga yetkazishda fidoyi bo‘lishlarini talab etadi.

O‘zbek xalq cholg‘u sozlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. Eramiz boshlarida turli cholg‘ulardan kundalik turmushda, ovda, xonlar saroyida, bayram marosimlarida, xalq sayllarida ijro etib kelingan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg‘u ansamblari, xonanda va sozandalar, hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. [3]

“O‘zbek musiqasi” iborasi keng mazmunli tushuncha bo‘lib, u, jumladan, o‘z ichiga milliy musiqamizning ikki asosiy qatlamining - xalq musiqasi va ustoz - san’atkorlar ijodi bo‘lgan kasbiy musiqa sohalarini hamda bastakorlik va kompazitorlik kabi zamonaviy musiqa ijodiyoti tarmoqlarining qamrab oladi. Shuningdek, “O‘zbek musiqasi” mazmunida yana asosiy bo‘lgan to‘rtta mahalliy musiqiy uslublar ham tushunilib, ulr esa quyidagicha nomlanadi: Surxondaryo- Qashqadaryo musiqa uslubi, Buxoro - Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg‘ona - Toshkent musiqa uslubi.

Har bir mahalliy musiqiy uslub o‘z xususiyati va an’analariga ega. Buan’analar esa uzoq vaqtlar moboynida shakllangan bo‘lib, ular

[3] A.Odilov O‘zbek xalq cholg’ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O’qituvchi” 1995. 8-b

xalqimizning turli sharaoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg‘ulotlari, marosimlari, urf-odat, bayramlari va boshqa shu kabi jarayonlar bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

O‘zbek xalq musiqasining mahalliy uslublarini o‘rganishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni an’analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalaidan baxramand etish hamda shu asosda ularda o‘tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg‘ularni shakllantirishdan iborat.

An’anaviy ijrochilik san’ati improvizatsiyaga asoslangan bo‘lib, cholg‘uchidan yuksak mahorat bilan chalishni va har gal yangicha, ijro usullarini qo‘llashni talab etadi.

O‘zbek xalq cholg‘u ijrochilarining takomillashishi bilan bog‘liq bilimlar yosh ijrochilarga yakkanavoz, ansambl ijrochiligida ijrochilik texnikasi imkoniyatlarini keng ochishga yaqindan yordam beradi. Bo‘lajak mutaxassisni mashhur xalq cholg‘ulari ijrochilik san’ati ustalarining ustoz-shogird an’analari asosida tarbiyalab, ular yaratgan maktablari bilan tanishtirish qatorida Respublikamizda ijod qilayotgan bastakorlarning o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun yaratgan va yaratayotgan yangi-yangi musiqiy asarlari bilan yaqindan tanishtirish va ular ijodidan namunalar ijro etishdan iboratdir.

XX ASRGACHA BO‘LGAN DAVRDA O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK SAN’ATI

Kalit so‘zlar: etnografiya, xalq cholg‘ulari, ijrochilik san’ati, xalq marosimlari

Etnografik va arxeologik tadqiqotlarga tayangan ko‘plab olimlar musiqa san’ati insoniyatni ibtidoiy jamiyat davrida shakllanishi, uning bevosita mehnat va dam olish jarayoni, diniy marosimlar va harbiy yurishlar bilan bog‘liq holda rivoj topishini ta’kidlaydilar.

Arxeologik qazilmalar asosida qadimgi devoriy suratlarda aks etib bitilgan chizma rasmlar orqali o‘lim marosimlarida ijro etiluvchi yig‘i-marsiyalar, harbiy marshlar, allalar, cho‘pon kuy va qo‘shiqlari shu singari aynan ko‘plab musiqiy janriar mavjud bolgani xususida asos yaratgan. Sharq mamlakatlarming rivojlanish davrida (mil. V-III ming yil avval) musiqa madaniyaitning ajralmas bo‘lagiga aylanganligiga guvoh bo‘lamiz. Qadimgi Misr, Suriya, Shumer, Bobil, Hindiston va Xitoy mamlakatlarining saroy marosimlari musiqasiz o‘tkazilmagan. Musiqaga ilohiy va afsungar qudratga ega bo‘lgan tirik jonzotlar, xudolar, tabiat va koinotga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi mo‘jizakor kuch sifatida qaralgan.

Dastlabki xalq cholg‘ulari, ma’lumotlarga qaraganda, XIII-ming yilliklarda paydo bo‘lgan deb taxmin qilinadi.[4] Dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Keyinchalik esa shovqinli cholg‘ular paydo bo‘la boshlagan. Eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq holda kuylangan. Xalqning hayot tarzi, o‘y-xayollari, mehnat sharoiti kuy va xalq qo‘shiqlarida o‘z aksini topgan. Forobiyning (873-950) “Katta musiqa kitobi” (kitob al musiqa al kabir), Ibn Sinoning (980-1037) “Davlat kitobi” (“Kitob ush-shifo”) qomusidagi musiqa haqida risola” Al-Xorazmiyning X asr kaliti Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “Oliyjanoblik haqidagi kitob” yoki “Sharafiya” kitobi Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) (musiqa haqida risola) kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg‘ulari haqida muhum va qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Darvesh Alining (XV-asrda) Buxoroda yaratgan musiqaga doir risolasi an’anaviy xalq cholg‘ulari haqidagi ma’lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin[5].

Darvesh Ali ta’rif bergan cholg‘ulardan yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobuz g‘ijjak, o‘sha davrda keng tarqalgan cholg‘ular

[4] Abdullayeva S.Современные азербайджанские музыкальные инструменты. Баку, 1984 й,,5-бет

[5] A.Odilov O‘zbek xalq cholg’ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O’qituvchi” 1995. 12-b

edi. Darvesh Alining ma’lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg‘un kolarid hosil qiladigan torli hohunli va torli kamonchali cholg‘ular qo‘llanilganligi haqida ma’lumot beradi.

Qo‘llanmada changchi Dilorom, Naychilar Abduqodir va Xo‘ja Abdullohi Lori, Mavlono Mirek changiy Buxoriy, mavlono Qosim-i-Rabboni, Sulton Ahmadiy “devona”, rubobchilar aka-uka Shayx-Abu Bakr-i-Rabboniy va shayx Behduchi Dono, qonunchi Shayx Shamsi-Rabboniy va ko‘pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olinadi.

G‘ijjak cholg‘uchi Shoh Quli-G‘ijjaki shu musiqa asbobida ajoyib ijrichilik mahoratini ko‘rsatgan va cholg‘u kuylarini yaratgan usta san’atkor bo‘lgan.

Naychi Sulton Ahmadiy Darvish Alini mashhur cholg‘uchi sifatida e’tirof etgan. Ud cholg‘uchisi Sulton Muhammad-Uddiy-Samarqandiyni iste’dodli cholg‘uchi musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan.

Buxorolik Shayx Shamsiy-Rabboniy mohir rubob cholg‘uchi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Taniqli cholg‘uchi Darvesh Shadiydan ud va chang chalish mahoratini egallagan. Uning shogirdi mohir sozanda Mavlon Zaynulla Bedaniy Rumiy ko‘pgina peshravlar (isfaxon, saqil, peshrav, far va bosh.q.) ijodkori edi.

Xalq cholg‘ularining ko‘zga ko‘ringan ijrochilaridan biri Ali Shunqor dugoh ohanglarida, turk-zarb ritmida yaratilgan asarlar bastakori sifatida tanilgan. Uning “savti begumiy”, “Naqshi begumiy”, (bo‘yoqdor - ohangdor kuylar) ohanglari xalq orasida keng yoyilgan.

Najmiddin Kavkabiy bir va Darvesh Ali risolalarida o‘n ikki maqom - (Rahobiy Husayniy Zan**g**ula, Rost, Ushshoq, Navo, Bo‘slik, Hijoz, Iroq, Isfahon, Zirofqand, Buzruk) asosida musiqa asarlari yaratgan bastakorlar nomi tilga olinadi.





Ijrochilikda yetuk bo‘lgan Mavlon Shayxiy Tebas-Gileksiy-ibn Abdurahmoniy-Rumiy (Rud) Ustod Zaykuniy-G‘ijjakiy, Xo‘Ja

Mahmudbek Is’hoqiy Sheyhaniy (dutor), Sayid Ahmad-bin Mehtariy Mirakiy, Ustod Qurbon Sa’diy, Ustod Poyonga (sunray va nog‘ora), Ustod Amir-Kuliy Tanburiy(tanbur) Ahmad Qonuniy Samarqandiy(qonun) Shayx Ahmdiy Qabuziy (qobiz). Musiqa nazariyasining katta bilimdoni, o‘z davri musiqa san’ati vakillarining ilg‘ori Amir Maschiy Hirotiy (qobiz), Yusuf Mavludiy dutori xirotiy (dutor), Ustod G‘ulokiy Nayi Ustod Abdusattor-Qonuniy Ustod Arob-Navziy Qobiziy, Xo‘jachi Ja’fariy Qonuniy, Xofiz Boboiy Qonuniy, Hofiz Turdiy Qonuniy va boshqa ko‘plab xalq cholg‘u ijrochilari muhim o‘rin tutganlar.



XV-XVI asr miniaturalarida chang (arfa), doira, lyutnya, barbat, ud, qonun, g‘ijjak, soz, nay, rubob, tanbur kabi cholg‘ulari tasvirlangan.

XIV-XV asr miniaturalarida esa cholg‘ulardan tashqari qarsak jo‘rligida ijro etilgan raqslar ham tasvirlangan.

Zahiriddin Muhhammad Boburning (1483-1530) e’tirof etishicha, Alisher Navoiy o‘z davrida ko‘plab ud cholg‘uchilar, naychilar, g‘ijjakchilar, changchilarning o‘z iste’dodlarini namoyon etishiga ko‘maklashgan. “Boburnoma”da o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrojilarining nomlari zikr etilgan. Boburning ta’kidlashicha, Ustod-qul Muhammad Shayboniy va Husayniy uddiy kabi mohir cholg‘uchilar Navoiyning bevosita yordami va homiyligida katta shuhrat qozondilar, ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar.[6]

XIX asr oxiri XX asr boshida mashhur honanda va sozandalar Domla Halim Ibodov, Usta Shodi Azizov, Levi Boboxonov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Sodirxon Bobosharipov, Boboqul Fayzullayev, Shonazir Sohibov, Fazliddin Shohobovlar Shashmaqomga yangi hayot baxsh etdilar.

[6] Восточная миниатюра. Тошкент, 1980, 99-бет.

O‘zbek xalq cholg‘ularining ijrochilik imkoniyatlari doimo kengaydi va takomillashdi.

XIX asrda ijrochilik amaliyotida nay, qo‘shnay, sunray, karnay, qo‘shnog‘ora, bo‘lomon, chang, qashqar rubobi buxoro (afg‘on) rubobi, tanbur, dutor, do‘mbira, g‘ijjak, sato, doira, qayroq, safoyil kabi cholg‘ular mustahkam o‘rin oldi.[7]

Cholg‘u ijrochilik san’atida bir qator musiqa ustalari yetishib chiqdilar. Bular:



To‘ychi hofiz Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Shobarot tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent). Rustambek Karimov (Rustam metar) surnaychi (Andijon) Ashurali Mahram, Abduqodir naychi (Qo‘qon), Ahmadjon qo‘shnaychi (Qo‘qon), Abdulla Tarak, Ro‘zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doirachi va changchi Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov (Marg‘ilon) va boshqalardir. Bu san’atkorlar o‘zbek xalq musiqasi xazinasi boyliklarini saqlab qolishda va iste’dodlarini tarbiyalashda, qadimiy cholg‘ularining tuzilishini takomillashtirish va yangilarini yaratishda katta hissa qo‘shdilar.

Musiqachilikda 6 turkum asarlardan iborat Shashmaqom katta ahamiyat kasb etadi. Is’hoq Rajabov yozadi: “Shashmaqom 6 xil turli lad tuzilmasidan iborat, ularning har biri o‘z navbatida mushkulot (cholg‘u) va nasr (ashula) bo‘limlaridan iborat bo‘lib, quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo‘linadi: “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq”. Har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o‘z ichiga oladi. Hammasi bo‘lib turkumda 250 ga yaqin mushkulot va nasr bo‘limlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etadi”.

Maqomlar asosan saroy a’yonlari huzurida muayyan sharoitda ijro etilgan.

[7] A.Odilov O‘zbek xalq cholg’ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O’qituvchi” 1995. 19-b

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mashhur xonanda va sozandalar Domla Halil Ibodov, Usta Shodi Azizov, Levi Boboxonov (Levicha), Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Sodirxon Bobosharipov, Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov, Fazliddin Shahobovlar Shashmaqomni yaratishda ijro mahoratlari bilan o‘zlarining bebaho hissalarini qo‘shdilar.



To‘xtasin Jalilov (1896-1966) Andijonda tug‘ilgan. U Qo‘qonga kelib mashhur cholg‘uchilar Eshon g‘ijjakchi, Madamin doirachi, Yusufjon changchilar bilan uchrashadi. Yusufjon changchi unga g‘ijjak chalishni o‘ragatgan birinchi ustozdir. To‘xtasin Jalilov-bastakor sifatida “Nurxon”, ”G‘unchalar”, ”Alpomish”, ”Muqimiy”, ”Surmaxon”, ”Ravshan va Zulxumor”, “Tohir va Zuhra” kabi musiqali drama spektakllarining yaratilishida muallif sifatida ishtirok etdi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri (1937-yil) asoschilaridan biri Nikolay Nazirovich Mironov (1870-1952) Samarada tug‘ilgan. U skripkachi bo‘lib, Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon va boshqa shaharlarda harbiy damli cholg‘ular orkestri rahbari va bosh dirijor sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Muhiddin Qori Yoqubov (1896-1957) O‘zbekistonda tashkil etilgan konsert etnografik ansamliga rahbarlik qilgan. Milliy cholg‘ulardan iborat bo‘lgan to‘garak tarkibida yevropacha musiqa asboblari (skripka, mandalina, truba) ham mavjud edi. 1918-yilda u Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishadi. Ular birgalikda birinchi o‘zbek teatrini tuzishadi.

O‘zbek xalq musiqasi an’analarining davomchisi, toshkentlik mohir xalq cholg‘uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiy (1897-1976) o‘zbek milliy san’atida o‘zining bebaho hissani qo‘shgan buyuk san’atkor. 5 jildlik o‘zbek xalq musiqasini yozib olib nashrdan chiqargan. Shashmaqomning 6 tomligini yaratgan. U O‘zbekiston xalq artisti (1953) va Akademik darajasigacha ko‘tarilgan san’atkor (1966).

1927-yilda Yunus Rajabiy O‘zbekiston radiosi qoshida 12 cholg‘uchi (xonanda va sozandalar)dan iborat xalq cholg‘ulari milliy ansamblini tashkil etgan.

Bastakor, xonanda va sozanda, akademik Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkentda tug‘ilgan. Avval madrasada, so‘ng 1919-1922 yillarda Turkiston xalq konservatoriyasida, 1934 yilda Toshkent Oliy musiqa maktabining tayyorlov kursida, 1940-1941 yillarda Moskvada bastakorlar kursida ta’lim olgan Yu.Rajabiy xalq musiqa merosini Mirzaqosim hofiz, To‘ychi Hofiz, Domla Halim Ibodovlardan o‘rgangan.

U aytgan «Girya», «Nolish», «Ko‘cha bog‘i», «Eshvoy», «Kurd», «Qalandari», «Shahnozi Gulyor», «Bayot», «Qaro ko‘zim», «Dugohi Husayni», «Chorgoh», «Miskin», «Nasrulloyi» kabi maqom yo‘llaridagi ashulalar, u tiklagan «Subhidam», «Yolg‘iz», «Sayqal», «Segoh», «Dugoh» va boshqa qadimgi o‘zbek kuy va ashulalari hamon tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlab, dillarga orom berib kelmoqda.

Xonandalikni bastakorlik bilan baqamti olib borgan san’atkor o‘zbek musiqali drama janrida samarali ijod etib, kuylar, qo‘shiqlar, raqs kuylari, xor asarlari yozdi.

Dastlab Xurshidning «Farhod va Shirin» (1922-1925), «Layli va Majnun» (1926), O‘.Ismoilovning «Rustam» (1933), A.Hidoyatovning «Avaz» (1935), Hamzaning «Xolisxon» (1940) spektakllariga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan bo‘lsa, keyinchalik S.Abdulla va Chustiyning «Qo‘chqor Turdiyev» (1942), B.Nadejdin bilan hamkorlikda A.Umariy va Uyg‘unning «Qasos» (1941), K.Yashinning «Farhod va Shirin» (1944), G.Mushel bilan hamkorlikda H.Olimjonming «Muqanna» (1943), Xalilov bilan hamkorlikda S.Qosimov va L.Mamatxonovning «Nodira» (1942-1943), B.Zeydman bilan hamkorlikda H.G‘ulomning «O‘g‘il uylantirish» (1964), Sayfi Jalil bilan hamkorlikda Y.Mahsumovning «Navoiy Astrobodda (1968) kabi musiqali dramalarini va T.Sodiqov, D.Zokirov, B.Zeydmanlar bilan hamkorlikda «Zaynab va Omon» operasini yozib, o‘zbek musiqali drama janrining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

«Fabrika yallasi», «Yor-yor», «Mirzacho‘lda to‘y», «O‘zbekiston», «Qahramonlar haqida qo‘shiq», «Bizning davron», «Vatan haqida qo‘shiq» «Xalqlar do‘stligi», «Bahor keldi», «Shodlik», «Dugonalarga», «Koshki», «Gulbargi», «G‘alaba» kabi kuy, xor asarlari, marshlari, «O‘yin bayoti», «O‘yin dugohi», «Paxta» singari raqs kuylarini ham yaratdi.

Yu.Rajabiy 1955-1959 yillarda (Y. Akbarov tahriri ostida) 5 jildlik «O‘zbek xalq muzikasi» to‘plamlarini nashr ettirdiki, ularga turli janrlardagi mingga yaqin o‘zbek (bir qancha tojik, uyg‘ur) kuy va ashulalar, «Buxoro Shashmaqomi», Toshkent, Farg‘ona maqom cho‘llari, qatta ashulalar, Hamza qo‘shiqlari, o‘nlab bastakorlarning asarlari kiritilgan. Maqom ansambli bilan uzoq ishlashi natijasida, 1966-1974 yillarda (F.Qaramatov tahririda) «Shashmaqom»ning 6 jildlik yangi nashrini tayyorladi.

Mazkur kitoblarga izoh beruvchi 1978-yilda nashr etilgan «Muzika merosimizga bir nazar» asari maqomchilarning ijro uslublarini o‘rganishda muhim qo‘llanma bo‘ldi.

Yu.Rajabiyning o‘zbek musiqa va qo‘shiq san’ati kamolotidagi katta xizmatlari 1958-yilda «O‘zbekiston xalq artisti» unvoni, Respublika Davlat mukofoti (1973) bilan taqdirlandi. 1966-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga saylandi.

O‘zbekiston musiqa san’atining ulkan arbobi Yunus Rajabiy 1976-yilda Toshkent shahrida vafot etdi. O‘zbekiston Televideniye va radio eshittirish Davlat qo‘mitasi qoshidagi «Maqom» ansambliga, Jizzax musiqali drama teatriga va Toshkent musiqa pedagogika bilim yurtiga, Toshkentdagi markaziy ko‘chalarning biriga Yunus Rajabiy nomi berildi.

Respublikamiz madaniy jamoatchiligi 1997- yilda Yunus Rajabiyning 100 yillik yubileyini keng nishonladi. O‘zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shganligi uchun u 2000-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Mashhur musiqachilar - qo‘shnaychi Xayrulla Ubaydullayev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajabov, Maqsudxo‘ja Yusupov, g‘ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yunusov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nig‘matjon Do‘stmuhammedov, Fahriddin Sodiqov, Mahammadjon Rasulov, doirachi Dadaxo‘ja Sottiyevlar barakali ijod qilgan.

Muxtor Ashrafiy (1912-1975) taniqli o‘zbek bastakori, O‘zbekiston xalq artisti, dirijor, musiqa arbobi.

Mashhur naychi, dutorchi, tanburchi, O‘zbekiston xalq artisti, taniqli bastakor, drijor, musiqa arbobi Tolibjon Sodiqov (1907-1957) o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan san’atkor.

Oʻzbek xalq artisti, taniqli bastakor va gʻijjak ijrochisi Doni Zokirov (1928). Uning orkestr uchun yozilgan “Bolalar syuitasi”, “Oʻzbek rapsodiyasi”, “Qarshi choʻli gullari”, “Jazoir”, “Tanovor” kabi asarlarni yaratgan.

Oʻzbekiston kompozitorlari: X.Azimov, Ilyos Akbarov, Ikrom Akbarov, Fattoh Nazarov, Gʻafur Qodirov, Rahmatjon Tursunov, keyinchalik Sayfi Jalil, Gʻanijon Toshmatov, Muxtorjon Mirtazoyev, Shavkat Mirzayev, Imomjon Ikromov, Kommunar Komilov, Tilash Xoʻjamberdiyev, Telman Hasanov, Komiljon Jabborov, Xolxoʻja Toʻxtasinov, Sodirjon Ochildiyev, Dadaali Soatqulov, Otavali Nuriddinnov, Baxtiyor Aliyev, Ozod Karimov, Abduhoshim Ismoilov, Oʻlmas Rasulov, Rafiq Ahmedov va boshqa koʻplab taniqli sozanda va bastakorlar oʻzbek milliy cholgʻuchilik sanʼatini rivojlantirishda oʻzlarini munosib hissalarini qoʻshib kelmoqdalar.

Mavzu boʻyicha savol va topshiriqlar:

1. Etnografiya soʻziga taʼrif bering.
2. Oʻzbek xalq cholgʻulari tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar toʻgʻrisida nimalar bilasiz?
3. Dastlabki xalq cholgʻulari qachon paydo boʻlgan?
4. Eng qadimgi mehnat qoʻshigʻi haqida maʼlumot bering.
5. Darvesh Ali taʼrif bergan cholgʻular qaysilar?
6. Ibn Sinoning musiqa ilmiga oid asarlarini ayting.

Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar:

1. Qomusiy olimlarimizning musiqa ilmiga oid asarlari bilan tanishib chiqing.
2. Xalq cholgʻularining koʻzga koʻringan ijrochilari toʻgʻrisida maʼlumot toʻplang.

CHOLGʻULARNI SOZLASH

Kalit soʻzlar: kamerton, cholgʻularni sozlash, cholgʻularni saqlash, temperatsiya, xarak.

Maʼlumki, musiqiy cholgʻular va ular bilan bogʻliq namunalar sozandalar ansamblining ahamiyatga ega boʻlgan tarkibiy qismini tashkil etadi.Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda oʻz oʻrnini egallagan va ijrocilik amaliyotining yuqori saviyaga koʻtarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bunga dalolat beradi. Oʻzbek xalq cholgʻularining har birini texnik jihatdan va ijro darajasiga koʻra ilgʻor cholgʻular qatoriga

kiritish munkin.Ularning aksariyat namunalari boy ijro imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

Cholg‘ular tarannumining rang-barangligi, ularning yuqori ijro darajasiga erishganligi hamda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli tarkibiga kiritib kelmoqdalar. O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli oiladosh cholg‘ulardan tuzilgan 5 ta guruhdan tashkil topgan bo‘lib, partiturada ular quyidagi ketma-ketlikda yuqoridan pastga qarab joylashadi:

1. Puflama cholg‘ular guruhi;
2. Torli-urma cholg‘ular (changlar) guruhi;
3. Torli-chertma (mizrobli) cholg‘ular guruhi;
4. Urma zarbli cholg‘ular guruhi;
5. Torli-kamonli cholg‘ular guruhi.

Puflama cholg‘ular guruhiga kichik nay (pikkalo), nay (katta), surnay va qo‘shnay kiradi.

Torli urma cholg‘u guruhiga chang kiradi. · Torli-chertma (mizrobli) guruhiga rubob prima, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, qonun, kontrabas, dutor, dutor bas asboblari kiradi.

Urma zarbli cholg‘ular guruhiga doyira, nog‘ora, buben, uchburchak, litavra, ksilafon, qayroqtosh, tarelka kiradi.

Torli-kamonli guruhga g‘ijjak, g‘ijjak alt, g‘ijjak qobus bas, g‘ijjak qobuz kontrabaslar kiradi.

Puflama cholg‘ular. O‘z nomi bilan, demak, faqat puflasa sado taratadigan cholg‘ular bunday nomlanadi. Cholg‘uning g‘ovak ustinida ma’lum miqdorda dam (havo) yig‘ilsa, bosim ostida barmoqlar harakati yoki lab mahoratidan turli balandlikda yoqimli tovushlar tartibli yangraydi. Bu toifa cholg‘ularni ayrimlar - damli cholg‘ular deb ham ishlataverishadi.

Torli cholg‘ularning sozlanishi. O‘z nomi bilan ma’lum bir ko‘rinishdagi, tovush chiqarish uchun bir nechtadan yo‘g‘on yoki ingichka torlar tortilgan cholg‘ular nazarda tutiladi. Torlari ichakdan yoki misdan bo‘lishi mumkin. Ulardan sado taratishning asosiy usullari ham turlicha, masalan, barcha torli cholg‘ularga nisbatan (bir-biridan farqlash uchun) mana bunday iboralar qo‘llaniladi.

· Torli-urma (demak, torlariga urib chalinadi),
· Torli-chertma (demak, torlarini chertib yoki tirnab chalinadi),
· Torli-kamonli (demak, torlari ustida kamon tortib chalinadi);

Ansamblda ijrochilik mahorati har xil darajali sozandalar bo‘lganligi sababli uchta belgigacha bo‘lgan tonlik kuylarini chaldirgan ma’qul. Albatta tabiiy tovush qatoriga ega bo‘lgan puflama guruhlarni nazarda tutish kerak. Nay, qo‘shnay, surnay asboblari chalishga qiynalmaydigan tonliklardagi asarlar bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Puflama cholg‘ular uchun qulay registrda (yuqori va registrning ikkinchi yarmi) yozilgan kuylar yengil va jarangdor sadolanadi.

Cholg‘ularni aniq tovush manbayiga ya’ni kamerton, nay yoki chang cholg‘usiga sozlash tavsiya etiladi. Mashg‘ulot boshlanishidan oldin har bir cholg‘uning aniq sozlanishi orqali ansambl sozining unison sadolanishiga erishiladi. Dastlabki mashg‘ulotdan boshlab o‘qotuvchi cholg‘u sozlarining aniq sozlanishiga e’tibor qaratishi va har bir ijrochidan ham shuni talab qilishi lozim. Musiqiy ma’lumoti yetarli bo‘lmagan sozandalarning cholg‘ularini dastlabki mashg‘ulotlarda o‘qituvchining o‘zi sozlab berishi va sekin-asta sozandani cholg‘usini o‘zi sozlashga o‘rgatishi kerak.

Ma’lumki, o‘bek xalq cholg‘ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan cholg‘ular, hamda tanbur, dutor, qonun, changdan tashqari) teri parda bilan qoplanadi. Bunday cholg‘ularni sozlashda xonaning iqlimi ham rol o‘ynaydi. Xalq cholg‘ularidan ko‘pchiligining sozlanishi xarrakning to‘g‘ri joylashishi ham bog‘liq bo‘ladi. Ochiq simlar sozlanib, oktava tovushi tekshirilganda sof oktava tovushini bermasa, xarrak oldinga yoki orqaga surilib kerakli tovushning hosil qilinishiga erishiladiOktava tovushi, ochiq sim tovushidan balandroq eshitilsa xarrak dastaga nisbatan oldinga, pastroq eshitilsa shuning teskari holati qo‘llaniladi. Barcha cholg‘ular yuqorida ko‘rsatilgan talablar asosida sozlanishi ansamblning unison, sof eshitilishiga xizmat qiladi.

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Torli cholg‘ularni sozlashda nimalarga etibor beriladi?
2. Torli urma cholg‘u guruhiga qaysi sozlar kiritiladi?
3. O‘zbek musiqasi tarixi yoritilgan adabiyotlar bilan tanishib chiqish.
4. Musiqa dunyosining insoniyat ma’naviyatida turgan o‘mi va ahamiyati xususida bayon yozing.
5. Cholg‘u sozlarini yaxshi saqlanishi uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Musiqa merosining ikki ulkan yo‘naIishi va o‘ziga xos an’analarini yoritib bering.
7. O‘zbek folklor musiqasining yo‘nalishlarini o‘zlashtiring.

8. O‘zbek kompozitorlik ijodiyotini bastakorlik an’analaridan faqini asoslang.

Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. O‘z cholg‘uingizni sozlash ustida ishlab boring.
2. Chang cholg‘usi takomillashtirilishi haqida ma’lumot to‘plang.
3. Mashg‘ulotlarda cholg‘ularni saqlash uchun maxsus joy tayyorlang.

UMUMIY IJRODA UYG‘UNLIKKA ERISHISH

Kalit so‘zlar: Ijro, mahorat, uslub, ansambl, sozanda, duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septol, oktet, uyg‘unlik, ritm

Sozandalar ansambli fanini o‘qitish jarayoni mumtoz kuy va qo‘shiqlarning talabalarga singdirish va o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilib borishni talab etadi.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysining ayrim o‘zbek cholg‘ularidan nay, sato, ud, qonun, tanbur, chang, qo‘shnay kabi asboblarni talab darajasida chala oladigan yoki shu mutaxassislik bo‘yicha tamomlagan talabalar deyarli kam uchramoqda. Qo‘shiqchilikka esa talablar ko‘payib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida shu mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish tizimini tubdan yaxshilash va ko‘paytirib borishni taqazo etmoqda.

“Ansambl” iborasi hayotda barcha ijodiyot sohasiga, ayniqsa san’at yo‘nalishiga xosdir. Musiqada «ansambl» iborasini qo‘llash azaldan keng ommalashgan. Aslida, «ansambl» fransuzcha «ensemble» so‘zidan olingan bo‘lib, birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik ma’nolarini bildiradi. Musiqa san’atida ansambl ko‘p ma’noga va turlarga egadir. Jumladan:

a) muayyan musiqa asarlarini bir nechta ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etish;

b) sozanda va xonandalarning kichikroq to‘dasi va ularga mo‘ljallangan asari, yirik janrlar tarkibida uchraydigan ansambllar. Opera, oratoriya, kantata janrlarida kichik ansambllar keng qo‘llaniladi. Ijrochilar soniga qarab ular - duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septol yoki oktet deb nomlanadi. Tarixdan ma’lumki, ijrochilikda cholg‘ular jo‘rligida qo‘shiq ijro etish, raqsga jo‘r bo‘lish xalqimizning ommaviy bayram va marosimlarida keng qo‘llanilgan. XX asrning o‘rtalariga kelib cholg‘ulardan turli guruhlarda hamda qo‘shiqlarni ham to‘da bo‘lib ijro etish ommalasha boshladi. Xalq og‘zaki ijodiyoti tarmog‘idan tortib to professional san’at yo‘nalishlarida bu jarayon keng qo‘llanila boshlandi. Xalq musiqasi ijrochiligi amaliyotida turli tarkibdagi xalq cholg‘u va raqs ansambllari faoliyati keng ommalashdi. Madaniyat

rivojida vokal-cholg‘u ansambllari, alohida cholg‘u hamda vokal cholg‘u ansambllari tuzilib, faoliyat olib bordi. Sozandalar ansambllariu shakllana boshladi.

Sozandalar ansamblini tayyorlashda quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Cholg‘uchilar ansamblini turli cholg‘u asboblarida chaladigan talabalardan iborat shakllantirish.
2. Cholg‘u asboblari haqida ma’lumot va ularning tuzilishini tushintirish.
3. Talabaning o‘zi chaladigan cholg‘u asbobini puxta bilishi, sozlay olishi va sadolantira olishi.
4. Talabaning iqtidori, zehni, musiqiy xotirasi.
5. An’anaviy cholg‘uchilik namunalarini (asarlar)ni ko‘p eshitish va asar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi.
6. Yozilgan asarlarni nota yozuvi asosida chala bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
7. Chalinayotgan kuyni his qilishi, o‘zbekona qochirim va nolalardan foydalana olishi va professional talab darajasida ijro eta olishiga erishishi.
8. Asarni mustaqil chala bilishidan tashqari uni to‘liq yodlashi va chala bilishi.
9. Milliy cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasini hosil qilish.
10. Ritmni (usulni) his etish, dinamika frazirovka.
11. Ijroni jo‘rnavoz bilan uyg‘unlashtirish.
12. Shtrixlar tovushlarini bir-biriga bog‘lash yo‘llari.
13. Etyud, gamma va mashqlar ijrosi.
14. Pozitsiyada chalishni o‘zlashtirish.
15. Konsert ijrochiligi repertuarini shakllantirish.
16. Sodda folklor musiqalari ijrochiligi.
17. An’anaviy bastakorlar ijodidan namunalar, mumtoz kuylar (maqom), o‘zbek va qardosh xalqlar kompazitorlari ijodidan namunalar ijrosi.

Ansamblarni cholg‘ular tarkibiga ko‘ra: bir xil cholg‘ulardan tashkil topgan ansambl, turdosh cholg‘ular ansambli, turli cholg‘ular ishtirokidagi aralash ansambllarga ajratish mumkin.

Ansamblarda eng asosiy e’tibor cholg‘ular tovushining bir-biriga uyg‘unlashib qo‘shilishi hamda bir-birini to‘ldirishiga qaratilishi lozim. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Ansamblning maqsadi - o‘zbek mumtoz musiqasi, kompozitorlar ijodi, zamonaviy musiqa va jahon xalqlari ijod namunalarini ijro etish bilan birga, dutor bas, ud, chang, qonun, g‘ijjak hamda doira cholg‘ularini umuman olganda xalq cholg‘ularini targ‘ib qilish bilan birga cholg‘ularning uyg‘unlik imkoniyatlarini namoyish etishdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Musiqa san’atining boshqa san’at turlaridan farqi nima?
2. Ansambl so‘ziga izoh bering.
3. Sozandalar ansamblini tayyorlashda nimalarga etibor qaratish kerak?
4. Ansamblarni cholg‘ular tarkibiga ko‘ra qanday turlarga ajratish mumkin?
5. Musiqiy ritm nima?
6. Nechta mahalliy musiqiy uslublar mavjud, ular haqida ma’lumot bering.
7. Ansamblarda cholg‘ular tovushining bir-biriga uyg‘unlashishi deganda nimani tushunasiz?
8. To‘xtasin Jalilov haqida ma’lumot bering.

ETYUD, GAMMA VA TOVUSHQATORLAR, MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASHDA NOTA YOZUVI VA ESHITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

Kalit so‘zlar: etyud, gamma va tovushqatorlar, nota yozuvi, nolish, molish, sayqal, ohangdoshlik, qochirim

Etyud, gamma va tovushqatorlar, musiqiy asar ustida ishlashda nota yozuvi va eshitish usullaridan foydalanish ansambl ijrochilariga musiqiy asarni mahorat bilan ijro etishda eng muhim vazifalardan biridir.

Fan dasturida keltirilgan mavzular asosan yakka mashg‘ulotning mazmunida keltirilgan tarkibiy qismlar alohida holda o‘zlashtirilmasdan, har bitta yangi asarni o‘rganish jarayoni mashg‘ulotlarning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Har semestrda talaba 4 tadan kam bo‘lmagan asarni o‘zlashtirishi shart. Tanlanadigan asarlarning kamida ikkitasi o‘zbek bastakorlarining an’anaviy yo‘lda yozilgan asarlaridan, bir asar maqom va maqom yo‘lidagi ashulalardan, bir asar o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan bo‘lishi talab etiladi. Asarlar xarakter, o‘lchov, murakkabligi va ohang jihatidan turlicha bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. To‘rtinchi semestrdan boshlab kamida bitta turkumli asar beriladi. Asarni mukammal o‘zlashtirish uchun quidagilarga etibor qaratish kerak.

Masalan:

1. *Tovush hosil qilish va ohangdoshlik* - turli tovush birikmalarini qalam tiliga yaqin holda kuylatish. Bunda lablar, til va tilchak harakatlari faolligiga, ularning to‘g‘ri yo‘naltirishiga erishish lozim. Bunda cholg‘ularda dastlabki ijro holati (pastanovka) - o‘zbek xalq cholg‘ularida ijro holati har xil bo‘ladi. Nay, qo‘shnay, chang, qonun, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, dutor, tanbur, doira, g‘ijjak, ud cholg‘ularining yasalishidan kelib chiqqan holda, ijro holati shakllanadi. Har bir cholg‘uda tovush hosil qilishda shtrixlar mavjud. Shtrixlar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, intonatsiyani sofligiga erishishga, ijroni soddalashtirish, ya’ni ijro texnikasini oshirishga hamda ohangdoshlikka erishishga xizmat qiladi.

2. *Asar matnini to‘g‘ri talaffuz etish* - Tanlangan yangi asarni ijro etish nota matnini tahlil etib, tegishli cholg‘uda “o‘qish” (chitka), ya’ni chalib ko‘rishdan boshlanadi. Nota matnining to‘g‘ri talqin etilishi uchun talabaning nazariy bilimlari va ijro malakalari bo‘lishi shart. Nota matnini dastlabki chalish davrlarida imkoni boricha sanab, sekin tempda boshlash katta ahamiyatga ega. Chunki, noto‘g‘ri talqin etilgan nota yoki jumla talaba tomonidan o‘zlashtirilgandan keyin uni to‘g‘rilash ancha qiyin kechishi mumkin. Nota matnining ma’lum qismi talaba tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirib bo‘lingandan keyin asar tempini tezlashtirish mumkin. Asarning qiyinroq bo‘laklarini o‘zlashtirish davrida o‘qituvchi talabaga mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Bu mashqlar talabaning ijro texnikasi o‘sishi uchun xizmat qiladi.

3. *Asar mazmuniga mos nola va qochirimlardan foydalanish* - O‘zbek xalq kuylari, bastakorlar asarlari va kompozitorlarning milliy ruxda yozilgan asarlari talqinida nota matnida yozilganlardan boshqa nola, qochirim singari bezaklar ham ishlatiladi. Qochirim tushunchasi ostida bitta nota o‘rniga yonma yon turgan notalardan foydalangan holda ijroni boyitish tushunilsa, nola tushunchasi nota matnidagi notani ijro etish davrida undan sirqalib pasroqqa yoki yuqoriroqqa siljishi tushuniladi. Ayrim asarlarda milliy nola qochirimlarni turli qo‘shimcha belgilar bilan ifodalash amaliyoti ham uchraydi. Nota matnini milliy qochirimlar bilan boyitilayotganda asar ruxiga mos nola qochirimlar ishlatilishi kerak. Bunday milliy bezaklarni o‘zlashtirishda talabalarning milliy kuylarni ko‘p eshitishi va o‘qituvchining o‘z ushbu bezaklarni chalib ko‘rsatib berishi yordam beradi.

Masalan:

Nolish - yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos bezakdir. Qashqar rubobi, afg‘on rubobini chalganda bu usul chap qo‘l barmoqlarini dastada ko‘ndalangiga harakatlantirilsa ud cholg‘usida torlarning joylashish zichligini hisobga olgan holda, chap qo‘l barmoqlarini dastada tovush balandligiga nisbatan pastdan yuqoriga harakatlantiriladi.

Misol:



Kashish - ud cholg‘usi ijrochiligida juda ko‘p qo‘llanadigan bezak bo‘lib, chap qo‘l barmoqlarini dastada yarim ton, bir ton doirasida yuqoridan pastga-pastdan yuqoriga sirg‘alish yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

yarim ton doirasidagi kashish -

bir ton doirasidagi kashish -



Molish - bir tovushdan ikkinchi tovushga ohista sirg‘alib o‘tish, u boshqa cholg‘ularni chalishdagi glissandani eslatadi. Undan ikki tovushni ifodali va ohangdor qilib birlashtirish vositasi sifatida foydalanadi.

Misol:



yoki Sayqal - bezaklarning bir turi bo‘lib, asosiy tayanch tovushga ikkinchi barmoq bosilib va mizrob zarbidan so‘ng birinchi barmoq bilan pastki yordamchi tovush zarbsiz ijro etiladi.

Misol:



To‘lqinlantirish - kuy davomida doimiy qo‘llanadigan bezaklardan biri bo‘lib, chap qo‘l barmoqlari torda bir notani olgan holda pastdan-yuqoriga bir tekis harakatlantirish bilan ijro etiladi.

Misol:



4. *Milliy cholg‘uda ijro etish ko‘nikmasi* - hosil qilish uchun talaba auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari mustaqil ta’lim davrida o‘z ustida ko‘p ishlashi kerak. Ayniqsa o‘zlashtirish murakkab bo‘lgan nay, qo‘shnay, g‘ijjak, tanbur, ud cholg‘ularida talaba o‘zi istagan tovushni hosil qilishi, ijro texnikasining yuqori bo‘lishiga erishishi uchun ko‘p mehnat talab etiladi. Ijro texnikasining o‘sishida gammalar, turli mashqlarni chalish yordam bersa, nola qochirimlarni maromiga yetkazib ijro etish o‘qituvchining amaliy ko‘rsatmalari va milliy kuylarni ko‘p eshitishga asoslangan holda tinimsiz mehnat qilish talab etiladi.

5. *Talabaning shaxsiy ijrochilik qobiliyati, talaba iste’dodidan unumli foydalanish va rivojlantirish* - talabalarning musiqiy qobiliyati turlicha bo‘lganligi bois ularning ijro malakalarini o‘stirish jarayonida har bitta talabaga individual yondoshuv zarur. Talabaning shaxsiy qobiliyatidan foydalanishda unga rejalashtiriladigan asarlarni tanlashda unumli foydalanish mumkin. Notani varaqdan o‘qish qobiliyati yuqori bo‘lgan talaba bitta asarni bitta darsda to‘g‘ri o‘qib va notaga qarab to‘xtamasdan ijro eta olsa, boshqa talabaga 3 ta dars ham kamlik qilishi mumkin. Ammo, ikkinchi talabaning ijro texnikasi yuqori bo‘lib, birinchi talaba 3 ta darsda ham yetisha olmayotgan tempda bitta darsdan keyin erishishi mumkin. Bundan hollarda talabaning qobiliyatidan foydalangan holda asarlar tanlanib, har ikki talabaning birgalik mustaqil dars qilishiga erishilsa, ular bir-birining kamchiligini to‘ldirgan holda rivojlana boradi.

6. *Ritmni his etish, dinamika, frazirovka* - an’anaviy ijroda ritm deganda asosan doira usuli tushuniladi. Dastlab talabalarga “zarb-ul

qadim” doira usulida ijro etiladigan ikki hissali oddiy o‘lchovdagi asarlar beriladi. Aslida, eng oddiy, ayni vaqtda eng murakkab usul “zarb-ul qadim”dir. Bunday asarlarni o‘rgatishda talabaga doira zarblari va qo‘shiq pardalari, so‘z bo‘g‘inlari, zarb bilan tushadigan qo‘shiqdagi qattiq va yumshoq tovushlarning xususiyatlari tushuntirib boriladi. Bu jarayonda nafasni to‘gri olish va undan tejamkorlik bilan foydalanish qoidalari mashg‘ulotlarning asosiy maqsadiga aylantirilishi kerak.

7. *Ijroni jo‘rnavoz bilan uyg‘unlantirish* - ma’lumki yakkaxon qo‘shiqchilikda tanbur, dutor ba’zi xollarda doira cholg‘u sozlari jo‘rnavozlik vazifasini o‘taydi. Bugungi kunda yakkaxon qo‘shiqchilarning cholg‘u ansambllari jo‘rligidagi ijrolar ham keng tarqalgan. Inson ovozi bo‘ysinuvchan bo‘ladi. Ayniqsa ovoz tanbur va dutor sadolariga tez moslashadi. Shularni xisobga olgan xolda ilk mashg‘ulotlarda tanlangan asarlar yoki ovoz mashqlarini tanbur, dutor sozlari jo‘rligida olib borilgani ma’qul. Bunda o‘qituvchi tanburdagi nolakorlik va dutordagi mungni talaba ovoziga singdirib borishga alohida e’tibor berishi kerak. Tajribali o‘qituvchilar qonun, rubob, qo‘shnay, g‘ijjak va nay sozlarida ham qo‘shiqchi bilan jo‘rnavozlik mashg‘ulotlarini olib borishi mumkin. Ta’kidlash kerakki bunday mashg‘ulotlar o‘qituvchidan ham, sozandadan ham o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Agar talabani biror konsertda chiqishi mo‘ljallangan bo‘lsa uni ansambl jo‘rnavozligiga ham ko‘niktirib borish kerak.

Ta’kidlash kerakki, talabalarning dastlabki ijro bosqichida ularning turli musiqiy oqimlar ta’sirida ekanligini xisobga olib, ba’zi asarlarni yoki ovoz mashqlarini fortepiano jo‘rligida amalga oshirish ham foydadan holi emas.

8. *Shtrixlar, tovushlarni bir-biriga bog‘lash yo‘llari* - Cholg‘u partiyasida odatda har doim ham ijro uchun zarur bo‘lgan shtrixlari ko‘rsatilmaydi. Shuning uchun har bitta asar ijrosi davrida o‘qituvchi ma’lum notalarni tegishli shtrixda (masalan yakka zarb bilan yoki tremolo, qaysi notani pastga yoki yuqoriga chalish) ijro etish lozimligi bo‘yicha vazifa qo‘yadi va talaba shu shtrixlarga amal qilishini talab qiladi. Agar talaba o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifani to‘liq bajara olmasa, o‘qituvchi notalar ustiga tegishli shtrixlarni yozib qo‘yishi kerak bo‘ladi. Cholg‘u ijrochiligida pozitsiya (chap qo‘lning holatlari)ni to‘g‘ri tanlash ham talab etiladi. Bu esa ijro texnikasidan unumli foydalanishni ta’minlaydi.

Masalan:

Yakka zarb - tovush chiqarishning oddiy usuli bo‘lib, mizrobli cholg‘ularda boshqa cholg‘ular kabi mizrobni pastga urish, nota ustiga “P” belgisi bilan belgilanadi.

Misol:



Mizrobni pastga va yuqoriga urib chalinadigan yakka zarb harakatlarining bir tekisda almashinib turishi natijasida hosil bo‘ladi.

Pastga urish nota ustiga “P” belgisi, pastdan yuqoriga urish esa “V” belgisi bilan belgilanadi.

Misol:



Bilak zarb - mizrobli cholg‘ularga mos zarblardan biridir. U boshqa cholg‘ularni chalishdagi arpedjato usulini eslatadi. Bu usul nota oldiga to‘lqinsimon chiziq qo‘yish bilan belgilanadi va uni ijro qilishda mizrobni torlar ustida birin-ketin sirg‘anma harakat bilan uzluksiz bajariladi.

Misol:



Ufor zarb - o‘zbek xalq raqslariga xos bo‘lgan, maxsus ijrochilik usuli bo‘lib, nota cho‘zimining o‘zaro teng bo‘lakka bo‘linishidan iborat.

Misol:



Teskari zarb - o‘ziga xos sinkopali ritm xarakteriga ega bo‘lib, mizrob bilan torga zarb berishda 2,5,8 zarblarga e’tibor berish kerak. Teskari zarb berishda mizrobni 1,3,4,6,7 - zarblari pastga 2,5,8 zarblari yuqoriga beriladi.

Misol:



Rez usuli - mizrobni pastga va yuqoriga zarblarni navbat bilan jadal va ravon ijro etishdan iborat bo‘lib, torlar ustidagi o‘ng qo‘lning bir xil maromdagi harakatidan hosil bo‘ladi. Shu sababli rez usuli bajarilayotgan paytda mizrobni torlar ustida pastga-yuqoriga bo‘lgan harakat masofasi teng bo‘lishi kerak. Kuylarda katta cho‘zimda yozilgan notalarning vertikal chiziqlari ustiga uchta ko‘ndalang chiziq qo‘yilsa, bu notalar rez usuli bilan chalishni ko‘rsatadi.

Misol:



Pozitsiya - deb chap qo‘lni cholg‘u dastasi bo‘ylab surmasdan, ma’lum bir tovush qatorini chalish imkoniyatini beradigan holatga aytiladi. Pozitsiya birinchi barmoqni qo‘yilgan o‘rni bilan aniqlanadi. Bir pozitsiyadan boshqa bir pozitsiyaga o‘tish pozitsiya almashinuvi deyiladi. Ud cholg‘usida birinchi, ikkinchi - pozitsiyalardan ko‘proq foydalanib, yuqori pozitsiyalarga kamroq o‘tiladi.

9. *Etyud, gamma va mashqlar ijrosi* - Ijro texnikasini o‘stirishda gamma, etyud va mashqlarning ahamiyati katta. Talabani cholg‘uni qo‘lga olgan ondan boshlab gamma chalib qo‘llarini qizdirishga

oʻrgatish kerak. Bunda, talaba ijro etishi lozim boʻlgan kuy tonalligidagi gammani chalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda mashqlar oʻrganilayotgan asardagi mrakkab joylarni oʻzlashtirishga xizmat qiladi va shu bois mashqlar oʻqituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Oʻquvchining ijro mahoratini shakllantirish, texnikasini oʻstirish maqsadida doimiy ravishda asosiy asarlarga qoʻshimcha sifatida etyudlar tavsiya etiladi. Tavsiya etiladigan etyudlar talabaning ijrodagi zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

10.*Konsert ijrochiligi repertuarini shakllantirish* - odatda tayyor boʻlgan asarlardan maxsus dastur tuzilib, ijodiy va hisobot konsertlariga tayyorlab qoʻyiladi. Bunda asarning qanday tartibda ijro etilishi, shuningdek sahna madaniyatini tarbiyalash, partiyalarni sifatli tayyorlash, fortepiano cholgʻusi bilan hamkorlikka e'tiborni qaratish va muallif koʻrsatmalariga qat'iy rioya qilish, tartib-intizom masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim. Repertuarni shakllantirishda dasturga kiritiladigan asarlarning rang-barang boʻlishi, ularning temp, xarakter, usul jihatidan farqlanishiga, shuningdek repertuarda faqat bir yoʻnalishdagi (faqat milliy yoki faqat Yevropa kompozitorlari) asarlarda foydalanmaslik masalalari ham muhim.

11.*Sodda folklor musiqalari ijrochiligi* - mashgʻulotlarda folklor qoʻshiqlaridan foydalanish koʻp hollarda mumtoz ashulalar, xalq qoʻshiqlarining mohiyatini talabaga tushintirishda yaxshi dastur-ul amal boʻla oladi. Bunday qoʻshiqlarni talabaga oʻrgatish unda tez va qisqa ijro malakalarini egallash aniq va shiddat bilan ijro qilish kabi ijobiy holatlarni paydo qiladi. Folklor musiqalarini oʻrgatishni yana bir xususiyati shundaki bu jarayonda talabalarda voqelikni tez anglash jarayoni tezlashadi. Birinchi kurs talabalariga diapazoni kengroq ba'zi folklor namunalarini ijroviy dastur sifatida ham berish mumkin.

12. *An'anaviy bastakorlar ijodidan namunalar ijro etishda* avvalo oʻrgatilayotga asarning qanday manbadan yaratilganligiga e'tibor berish kerak. Agar bastakorlik namunasi maqom yoʻlidagi ohanglarda yaratilgan boʻlsa, uni oʻrganish jarayonida mashgʻulotlarda talabaga asarning qaysi voxa professional ijrochiligiga xos ekanligi tushintiriladi. Oʻsha ohanglar aks etgan musiqa ijrochiligi boʻyicha keng foydalanish kerak. Bastakorlik namunalarini oʻrgatish jarayonida asar muallifining shakillangan muhiti va ijodiga dahildor boshqa holatlarni nazar va amaliy jihatdan talabaga tushintirib borish talab etiladi.

13. *Mumtoz kuylar, maqom cholgʻu yoʻllaridan namunalarni ijro etish* - talabalarga beriladigan ijroviy dasturning salmoqli qismi mumtoz

kuylar boʻlib, “Shashmaqom”ning mushkulot boʻlimidan esa tasnif, gardunlarni tavsiya etiladi. Har bir asarni talabaning musiqa cholgʻu ijrochilik mahoratidan, uning egallagan bilimidan va imkoniyatidan kelib-chiqqan holda tavsiya etiladi. Chunki, maqom asarlarini ijro qilish murakkab hisoblanadi. Mumtoz va maqomning mushkulot qismidan oʻrgatish jarayonida talabaga undagi badiiy va musiqiy matnni keng tushintirish lozim.

14. *Oʻzbek va qardosh xalqlar kompozitorlari ijodi* - mashgʻulotlarida avvalo tanlangan asarning qaysi vohaga tegishli ekanligiga e’tibor beriladi. Toshkent-Fargʻona ijrochiligi. Buxoro-Xorazm maqom shoʻbalaridagi asarlarni ijro etish. Oʻzbek va qardosh xalqlarining xalqona yoʻlida ijro qilingan asarlar oʻrgatiladi. Bunda asosan musiqiy ijro yoʻllariga ahamiyat beriladi. Har bir musiqiy bezaklarni bir-biridan farqli nola, qochirimlar, bajara olishi lozim boʻladi. Asar mualliflarining ijodi bilan tanishadi.

15. *Oʻzbekiston kompozitorlari ijodidan namunalar ijrosi* - milliy cholgʻularda oʻzbek kompozitorlarining tempi jihatidan tez boʻlgan asarlarni ijrochilikda mohirlikni egallash uchun ijro etadi. Bunda asosan oʻzbek kompozitorlarining oʻzbek xalq kuylarini qayta milliy cholgʻular uchun moslashtirgan asarlarini ijro qiladi. Shuningdek, barmoqlar joylashuvi, pozitsiya va shtrixlar oʻrganiladi.

16. *Tovush hosil qilish va ohangdoshlik* - turli tovush birikmalarini qalam tiliga yaqin holda kuylatish. Bunda lablar, til va tilchak harakatlari faolligiga, ularning toʻgʻri yoʻnaltirishiga erishish lozim. Bunda cholgʻularda dastlabki ijro holati (pastanovka) - oʻzbek xalq cholgʻularida ijro holati har xil boʻladi. Nay, qoʻshnay, chang, qonun, qashqar rubobi, afgʻon rubobi, dutor, tanbur, doira, gʻijjak, ud cholgʻularining yasalishidan kelib chiqqan holda, ijro holati shakllanadi. Har bir cholgʻuda tovush hosil qilishda shtrixlar mavjud. Shtrixlar tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga, intonatsiyani sofligiga erishishga, ijroni soddalashtirish, ya’ni ijro texnikasini oshirishga hamda ohangdoshlikka erishishga xizmat qiladi.

17. *Asar matnini toʻgʻri talaffuz etish* - Tanlangan yangi asarni ijro etish nota matnini tahlil etib, tegishli cholgʻuda “oʻqish” (chitka), ya’ni chalib koʻrishdan boshlanadi. Nota matnining toʻgʻri talqin etilishi uchun talabaning nazariy bilimlari va ijro malakalari boʻlishi shart. Nota matnini dastlabki chalish davrlarida imkoni boricha sanab, sekin tempda boshlash katta ahamiyatga ega. Chunki, notoʻgʻri talqin etilgan nota yoki jumla talaba tomonidan oʻzlashtirilgandan keyin uni toʻgʻrilash ancha

qiyin kechishi mumkin. Nota matnining ma’lum qismi talaba tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirib bo‘lingandan keyin asar tempini tezlashtirish mumkin. Asarning qiyinroq bo‘laklarini o‘zlashtirish davrida o‘qituvchi talabaga mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Bu mashqlar talabaning ijro texnikasi o‘sishi uchun xizmat qiladi.

18.*Asar mazmuniga mos nola va qochirimlardan foydalanish* - O‘zbek xalq kuylari, bastakorlar asarlari va kompozitorlarning milliy ruhda yozilgan asarlari talqinida nota matnida yozilganlardan boshqa nola, qochirim singari bezaklar ham ishlatiladi. Qochirim tushunchasi ostida bitta nota o‘rniga yonma yon turgan notalardan foydalangan holda ijroni boyitish tushunilsa, nola tushunchasi nota matnidagi notani ijro etish davrida undan sirqalib pasroqqa yoki yuqoriroqqa siljishi tushuniladi. Ayrim asarlarda milliy nola qochirimlarni turli qo‘shimcha belgilar bilan ifodalash amaliyoti ham uchraydi. Nota matnini milliy qochirimlar bilan boyitilayotganda asar ruhiga mos nola qochirimlar ishlatilishi kerak. Bunday milliy bezaklarni o‘zlashtirishda talabalarning milliy kuylarni ko‘p eshitishi va o‘qituvchining o‘z ushbu bezaklarni chalib ko‘rsatib berishi yordam beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Musiqiy asar ustida ishlashda nimalarga etibor qaratiladi?
2. Musiqiy asarni to‘liq o‘zlashtirish ucnun nimalarga etibor qaratish kerak?
3. Respublikaning turli viloyatlarida tashkil etilgan musiqiy uyushmalar va to‘garaklari haqidagi maiumotlar.
4. Musiqiy ta’lim muassasalari xususida.
5. Yunus Rajabiy ijodi va faoliyatiga oid maiumotlar.
6. XX asrning 20-40-yillaridagi madaniyat sohasini o‘rganish uchun xizmat qiluvchi ikkilamchi manbalami ayting.

MUSIQIY TOVUSH SOZI VA SOFLIGI

Kalit so‘zlar: musiqiy tovush, shovqin, tebranish, musiqiy ifodalilik

Tabiatda odam qulog‘iga chalinadigan tovushlar cheksizdir. Ular *shovqinli* - taqillagan, shitirlagan, g‘ichirlagan kabi tabiiy tovushlar, va *musiqiy* - kuylayotgan odam ovozi, yangrayotgan cholg‘u asbobning sadolari kabi sun’iy tovushlarga ajratiladi. *Musiqiy* tovushlar musiqa san’atining asosiy vositasi bo‘lib, atrofdagi voqelikni aks ettirishda xizmat qiladi. Ular musiqa madaniyatining ko‘p asrli taraqqiyot jarayonida saralab olinib, muayyan tizimga uyushtirilgan.

Musiqiy ifodalilik elementlarining negizi musiqiy tovush o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar tebranilayotgan jismning tebranish tezligi, tebranish kengligi, tebranish davomiyligi va tarkibiy qismlari son va sifatidan kelib chiqadi. Ma’lumki, biz kundalik hayotda juda ko‘p, xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo‘llanila bermaydi. Eshitish organlarimiz *musiqaviy* tovushlar bilan *shovqinli* tovushlarni bir-biridan ajratish qobiliyatiga ega. Shovqinli tovushlar, masalan, qarsillash, gumburlash, g‘ijirlash, shivirlash, dukillash va hokazolar aniq tovush to‘lqini balandligiga ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo‘llanilmaydi.

Musiqaviy tovushning nazariy jihatdan to‘rt xil fizik xususiyati mavjud. Ular balandlik, uzunlik (cho‘zim), qattiqlik (tovush kuchi) va tembr (tovush tusi) dan iborat.

Xorij adabiyotlarida ham “Musiqaning asosiy elementlari, balandlik uzunlik tembr va dinamika yani tovush qattiqligi deb berilgan. Ba’zi mualliflar tezlik (ovozdan hosil bo‘lgan fizik tebranishning jadalligi) va tuzilishni ham kiritadilar”.

Yangrayotgan tovushning balandligi tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya’ni chastotasiga bog‘liqdir. Tebranish qanchalik tez bo‘lib tursa, tovush shunchalik baland bo‘ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo‘lsa, tovush shunchalik past bo‘ladi.

Yangrayotgan tovushning cho‘zimi tebranayotgan jismning to‘lqin amplitudasiga bog‘liqdir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o‘zgarmaydi, lekin musiqa nuqtai nazaridan tovushning cho‘zimi uning yana bir xususiyati bo‘lib, muhim ahamiyatga egadir. Tovush cho‘zimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo‘lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo‘lgan jism erkin tebranishi shart.

Yangrayotgan tovushning qattiqligi tebranish harakatining kuchiga, ya’ni, tovush manbai bo‘lgan jismning tebranish kengligiga bog‘liqdir. Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi *tebranish amplitudasi* (kengligi) deyiladi.

Tebranish amplitudasi qanchalik katta bo‘lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha.

Tembr deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg‘ularga taalluqli turli

iboralar qo‘llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo‘g‘on, jarangdor, kuychan tovush deyishadi va h.k.

Ma’lumki, har bir cholg‘u asbobi yoki inson ovozi o‘ziga xos tembrga egadir. Xilma-hil cholg‘u asboblarida eshitiladigan ma’lum balandlikdagi tovushlar o‘zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo‘lgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks-sadolarga) bog‘liqdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Fizik va sezgi holatidagi tovush xususiyatlarini ayting.
2. Tovush to‘lqini deb nimaga aytiladi?
3. Sezgi holatidagi tovushga ta’rif bering.
4. Bir sekunddagi tebranishlar soni deganda nimani tushunasiz?
5. Tovushning nechta fizik xususiyati bor?
6. Tovushning balandligi deganda nimani tushunasiz?
7. Tovushning qattiqligi nima?
8. Tovushning cho‘zimini tushuntiring.
9. Tovushning tembr xususiyatlarini tushuntiring.

ANSAMBL CHOLG‘ULARI TARKIBI

1. Urma musiqiy cholg‘ular

Bu cholg‘ular turiga doira, nog‘ora, qayroq, safoil, chindovul, tavlak, qoshiq, sagat (tarelka) kiradi. Har bir cholg‘uning o‘ziga xos jarangi, sadolanishi, ko‘rinishi va ijro usullari mavjud. Urma musiqa cholg‘ulari juda qadimiy bo‘lib, ulardan o‘zbek xalqining to‘y marosimlarida, bayramlarida ochiq va yopiq joylarda (xonalarda, saroylarda) yakka hamda ansambl shaklida keng foydalanilgan. Hozirgi kunda ham o‘zining qadimiy ko‘rinishini deyarli saqlab qolgan milliy cholg‘ularimizdan biri doiradir.



Doira xalqasimon shaklda boʻlib, uzum (zang) tanasidan, klyon, yongʻoq, tut, oʻrik va boshqa qattiq daraxtlardan egma holda yasaladi. Diametri 37-45 santimetr boʻlib, asosan toy terisi yoki buzoq terisi bilan qoplanadi. Gardishning ichki qismida jarangni saqlab qoluvchi kichkina xalqachalar 2, 2,5 santimetr oraliqda joylashtiriladi.

Doiraning boshqa oʻzbek cholgʻularidan farqi (nogʻoradan tashqari) olovda qizdirilib sozlanadi, yaʼni jarangdorligi oshiriladi.

Arxeologlarning qidiruv ishlari jarayonida topilgan qazilma boyliklardan bizga maʼlumki, doira (buben) bizning asrimizgacha boʻlgan II asrda ham mavjud boʻlgan. Oʻrta Osiyoda u bundan 2000-yil oldin paydo boʻlgan. Doira hozirgi kunda ham oʻzbek xalq cholgʻulari orasida alohida oʻringa tutadi. U yakka holda yoki ansambl koʻrinishida ijro etiladi. Shunisi quvonarliki, hozirda faqat doirachilardan tashkil topgan ansambllar koʻpaymoqda. Misol tariqasida Elmurod Islomov, Husan Nosirovlar rahbarligidagi doirachilar ansambllarini keltirish mumkin.

Doira imkoniyati juda keng cholgʻulardan hisoblanadi. Akademik Yunus Rajabiy maqomlarimizni notaga olgan vaqtda doira usullarini yozish uchun bitta nota chizigʻidan foydalangan. Hozirda esa doira usullarini toʻliq notaga tushirish va kelajak avlodlarga toʻliq qoldirish maqsadida toʻrtta nota chizigʻidan foydalaniladi. Bu esa har bir qoʻl va barmoqlar uchun alohida usullarni, choʻzimlarni belgilash imkonini beradi. Doirachilik maktabi asosan ustoz va shogird anʼanalari orqali rivojlanib bizgacha yetib kelgan. Bunga misol qilib ustoz doirachilardan Usta Olim Komilov, Toʻychi Inogʻomov, Gʻofir Azimov, Qahramon Dadayev, Odil Kamolxoʻjayev, Elmurod, Xolmurod, Dilmurod Islomovlar va Hasan Azimovlarning xizmatlarini alohida qayd etish mumkin.

2. Damli (puflab chalinadigan) cholgʻular

Oʻzbek xalq cholgʻularining yana bir turi damli cholgʻu asboblaridir. Bu turdagi cholgʻular puflab chalingani bois “damli cholgʻular” deyiladi va oʻz navbatida ikki guruhga ajratiladi:

1. Kamer, yaʼni yopiq joylarda ijro etish uchun moʻljallangan ovozi nisbatan yumshoq cholgʻular: nay, qoʻshnay.

2. Ochiq joylarda chalishga moʻljallangan cholgʻular: karnay, surnay, bulamon.

Damli cholgʻular ichida keng tarqalgani va imkoniyat darajasining kengligi bilan ajralib turuvchi cholgʻu naydir.



Nayning XIV-XV asr miniatyuralarida tasvirlanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, uning qadimiy cholg‘u ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu haqda Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ham quyidagicha ma’lumot berib o‘tgan: *“Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi”.*

Nay qamishdan (g‘arov nay), bambuk, oq tunuka (brinji nay) suyak (so‘ngak) dan yasaladi. Nayning puflash uchun mo‘ljallangan teshigidan tashqari oltita teshigi mavjud. Ayrim naylarda bu teshiklar soni yettita bo‘ladi. Xalq sozandalarining fikricha, puflaydigan teshik bilan birinchi barmoq bosiladigan teshik o‘rtasiga qog‘oz yopishtirib qo‘yilsa tovushga sayqal beradi. Mazkur sozlarning uzunligi 50 santimetr bo‘ladi va bir uchi po‘kak bilan berkitiladi. Puflash uchun va barmoqlar bilan berkitish uchun mo‘ljallangan teshiklaridan tashqari ovoz muvozanatini saqlashga yordam beradigan yana ikki yoki uchta ovoz teshiklari mavjud. Puflash natijasida turli tovush va qochirimlarning hosil qilinishi nay chalishning xarakterli xususiyatlaridan biri desak, yanglishmaymiz.

Nay chaluvchi sozanda nayning chalish uchun mo‘ljallangan teshigiga labini shunday qo‘yishi kerakki, lab uning to‘rtdan bir qismini berkitishi lozim. Qo‘l barmoqlarini yaxshi ishlata bilishi kerak. Sozni sadolashda nafas olish tez, chiqarish esa juda tekis hamda davomli bo‘lishi talab etiladi. Nafasni chiqarganda o‘pkada yig‘ilgan havoning hammasini oxirigacha chiqarish tavsiya etilmaydi. Chunki tovushning sifati, yoqimliligi bevosita shularga bog‘liq bo‘ladi. Nayda puflash kuchini o‘zgartirish orqali 2,5 oktavagacha tovushqator hosil kilish mumkin. Nayning ovoz diapazoni birinchi oktava lya tovushidan to‘rtinchi oktava re tovushigacha. Nay chalish bo‘yicha ustozlik darajasiga yetgan san’atkorlardan Ahmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Halimjon Jo‘rayev, Abdulahad Abdurashidovlarni alohida qayd etish mumkin.

Nayning diapazoni quyidagicha:

Birinchi oktava lya tovushidan to‘rtinchi oktavaning re tovushigacha.



Puflab chalinadigan cholg‘ular turkumiga kiruvchi yana bir cholg‘u asbobi qo‘shnaydir.

QO‘SHNAY - juda qadimdan Sharq xalqlarida, jumladan o‘zbek, tojik xalqlari orasida keng tarqalgan cholg‘u sifatida bizga ma’lumdir. Qadimgi Sharq xalqlariga asosan puflab chalinadigan ikki cholg‘u ma’lum bo‘lgan.



1. Avlos (grekcha nomi)
2. Dunay yoki dubay.

Bu cholg‘ular eramizdan oldingi 2000 yilga to‘g‘ri keladi va hozirgi qo‘shnayga o‘xshagan cholg‘uga monand bo‘lgan.

Qo‘shnay cholg‘usining o‘ziga xos xususiyati bir-biriga bog‘langan ikkita qamishdan yasalganligi va ikkalasining birga ijro etilishidadir. Qo‘shnayning umumiy uzunligi 30 santimetrgacha bo‘lishi mumkin. Biz yuqorida qo‘shnayni juda qadimiy cholg‘u asbobi dedik. Uning qadimiyligini yapon olimlari ham isbotlaganlar. Qidiruv ishlari natijasida Namangan viloyati Pop tumanidagi Kultepadan uysifat to‘rtburchak sag‘ona topilgan. Uning ichida qamishdan yasalgan oltita tobut chiqqan. Eramizning V asrlarida insonlar hayotlik davrlarida qaysi ish bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, ana shu kasbga taalluqli biror belgi bilan dafn etilgan ekanlar. Shu bois tobutlar ichidan qo‘shnay asbobi ko‘milgan odam musiqachi, ya’ni qo‘shnaychi bo‘lganligidan dalolat beradi. *(Qo‘shnay haqidagi ma’lumot ustoz qo‘shnaychi Mirzasharif Mirbaratovdan olingan. S.J.)*

Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» nomli kitobida aytilgan qo‘shnay haqidagi fikrlarni keltirishni lozim topdik. *«Fikrimizcha, bizda cholg‘ularning eng ibtidoiysi qo‘shnaydir. Bu kun oradan chiqmoq uzradir. Juda yoniq bir tovushi bor. Ikki qamishni yonma-yon qo‘yib bog‘laydilar. Har ikkisini*

ham bosh tomonlaridan kesib til chiqartadilar-da, ogʻizga quyub puflaydirlar».

Qoʻshnayning puflanadigan berk uchi tomonida tilchalarini qisqartirish va uzaytirish uchun ipdan qilingan xalqa mavjud. Shu tilchalarni lablar bilan qisqartirish va ularni bosish kuchini oʻzgartirish orqali tovushqator hosil qilinadi. Qoʻshnayning tembri juda baland va yoqimlidir. Hozirda qoʻshnay xalq cholgʻu ansambllarida keng qoʻllanilyapti. Ayniqsa, Xorazm vohasi, Qoraqalpogʻistonning ayrim hududlari, Toshkent shahri hamda viloyatida qoʻshnaydan yakkanavoz soz va joʻrnavoz soz sifatida yaxshi foydalanilmoqda. Diapazoni birinchi oktava re tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigacha, lekin cholgʻuchining mahorati yetarli boʻlsa undan yuqori tovushlarni ham hosil qilish mumkin.

Ustoz qoʻshnaychilar sifatida Ahmadjon Umrzoqov, Qayum ota, Qurbonboy ota, Mirzasharif Mirbaratov, Nasriddin Roʻziyev kabilarni koʻrsatish mumkin.

Qoʻshnayning diapozoni birinchi oktavaning “re” tovushidan ikkinchi oktavaning “sol” tovushigacha.



3. Noxunli mezrobli cholgʻular



Bu tur cholgʻularga qashqar rubobi, afgʻon rubobi, tanbur, qonun va ud kiradi.

QASHQAR RUBOBI rubob juda qadimiy cholgʻu hisoblanadi. Oʻsha davr ruboblari hozirgi biz qoʻllayotgan qashqar rubobi koʻrinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bogʻliqdir. Qadimiy ruboblar besh torli boʻlgan. Toʻrtta simi ipakdan, bittasi esa kumushdan yasalgan.

Shu oʻrinda Fitratning “Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida bayon etilgan jumlani keltiramiz: *“Yozuvchisi ma’lum boʻlmagʻan bir “musiqiy tarix”chasida rubobning Sulton Muhammad*

Xorazmshoh tomonidan Xorazmda paydo boʻlgani yoziladir. Bu kitobni koʻrganim kun men ham shunga ishongan edim. Biroq 20-yillarda Hindistondan keltirganim "Sorang" ismli bir cholgʻuning rubobga juda oʻxshashligi meni shoshirgan edi. Soʻngralari qoʻlimgʻa tushgan Darvesh Aliyning "Risolayi musiqiy"sida bu cholgʻuning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani koʻrsatiladir".

Bu cholgʻuning kelib chiqish tarixi toʻgʻrisida turli manbalarda turlicha maʼlumotlar keltirilgan. Jumladan Al-Forobiy (X asr) oʻz davrining musiqa asboblarini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) "Musiqa haqida risola" asarida musiqa asboblarining tuzilishini bayon qilar ekan, "Rubob torli musiqa asbobi. Oʻrta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220-yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yoʻq rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor boʻlib, ulardan toʻrttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi",- deb yozadi. "Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uygʻur Avtonom Okrugi) ning Qashqar degan joyi nomi bilan bogʻliq boʻlsa-da, oʻzbek milliy cholgʻulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholgʻu hisoblanadi. Musiqani endigina oʻzlashtirayotganlarning 50 foizidan ortigʻi ana shu cholgʻudan foydalanishi maʼlum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega boʻlib, nisbatan tez oʻzlashtirilishi mumkin boʻlgan cholgʻular qatoriga kiradi". Qashqar rubobi hozirda yakkanavoz soz sifatida oʻzbek xalq ansambllarida yetakchi oʻrinni egallaydi. Diapazoni kichik oktava lya tovushidan uchinchi oktava lya tovushigacha. Hozirgi qashqar rubobida beshta tor mavjud. Toʻrttasi metall aralashmasidan, bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Sozlanishi kvarta va kvarta kvinta oraligʻida boʻladi, yaʼni birinchi tor lya tovushiga, ikkinchi tor mi tovushiga, uchinchi tor lya yoki si tovushlariga sozlanadi.

Rubob chalish sanʼatida ustozlik darajasiga yetgan sozandalar: Muhammadjon Mirzayev, Shavkat Mirzayev, Ari Boboxonov, Orif Atoyev, Tohir Rajabiy va boshqalar el orasida mashhur.

Qashqar rubobining diapazoni va sozlanishi quyidagicha:

Birinchi juft torlar birinchi oktavaning "lya" tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning "mi" tovushiga (unison), uchinchi ichak tor esa kichik oktavaning "si" tovushiga sof kvarta

oralig‘ida yoki an’anaviy ijrochilikda ba’zan asar xususiyatidan kelib chiqqan holda “lya” tovushiga ham sozlanadi.



Qashqar rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “si bemol” tovushigacha.



AFG‘ON RUBOBI juda qadimiy musiqa asbobidir. N.N.Mironov tomonidan afg‘on rubobining Hindistonda uchrashi, Qashqarda uni rabob deb atalishi yozilgan. Professor Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” asarida bu cholg‘uning Xorazm amiri Muhammad Xorazmshoh davrida Balx shahrida shaxsi nomalum kimsa tomonidan yasalgani haqida rivoyatni keltiradi. Afg‘on rubobi qadim zamonlardan o‘zbek xalqi orasida ayniqsa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Uning korpusi ponasimon shaklda katta va chuqur bo‘lib, yon tomonlarida o‘yiqlari bor.



Dastasi qashqar rubobiga nisbatan ancha (8-10 sm.) kalta bo‘lib, uch tomoni bir oz orqaga qayrilgan. Kosa qismi bilan dastasi yaxlit yog‘ochdan (ko‘pincha tutdan) yasaladi. Dastasi pardalarga bo‘lingan bo‘lib, uning pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va korpusning ustini o‘yiqlarga qadar yopadi. Korpusning qolgan qismi (o‘yiqlardan keyingi qismi) ga teri qoplanadi. Asbobning umumiy

uzunligi 70-80 santimetrni tashkil qiladi. Afg‘on rubobi ko‘rinishi va ijro uslubi jihatidan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Hajmi katta, baland avjli kuylarni ijro etishda rubob dastasining davomi sifatida, rezanator qopqog‘ining ustki qismiga dastadagi asosiy 4 pardadan tashqari o‘rnashtirilgan 6,7 xaspardalar asos bo‘ladi. Afg‘on rubobida besh asosiy va diatonik tarzda sozlangan 10, 11 aks sado beruvchi torlar mavjud bo‘lib, asosiylaridan 1- 2- bilan, 3- 4- bilan, 5 - torlar kvarta oralig‘ida sozlanadi.

Dutor va tanburdan farqi, afg‘on rubobining barcha torlari ijroda keng qo‘llaniladi. Afg‘on rubobida chalish ma’lum darajada murakkab bo‘lganligi sababli uni tanbur va boshqa ayrim cholg‘ular singari deyarli mutaxassis sozandalar qo‘lida ko‘ramiz. Afg‘on rubobi boshqa ko‘pgina o‘zbek xalq cholg‘u asboblari singari 30-yillarning oxiri, 40-yillarning boshlarida A.I.Petrosyans tomonidan rekonstruksiya qilindi, ya’ni takomillashtirildi. Uning takomillashgan turida yordamchi torlar yo‘q. Korpusi ixchamlashtirilgan, dastasi uzun temperatsiyalangan to‘la xromatik tovushqatorga ega. Pardalar esa ebonit qalamchalardan yasab o‘rnatilgan. Asbobning takomillashtirilishi ijro texnika imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi. Diapazoni kengaytirildi. To‘rtta bog‘langan parda va yopishtirilgan 6-7 ta parda o‘rniga mustahkamlangan 19 ta parda o‘rnatildi. Tovush qatorga temperatsiya va xromatizatsiya joriy etildi. Uning beshta tori bo‘lib, to‘rttasi ikkitadan qo‘shaloq va beshinchisi yakka holda o‘rnatildi.

Takomillashtirilgan afg‘on rubobida hamma torlar ichakdan yoki kapron tolasidan tayyorlanadi va kvarta oralig‘ida sozlanadi. Diapazoni kichik oktava “lya” tovushidan uchinchi oktava “mi”-“fa” tovushigacha. Afg‘on rubobining mashhur ijrochilari: Tavur Jumaev, Ergash Shukrullayev, Savinov, G‘ulomqodir Ergashev, Tohir Yo‘ldoshev va boshqalarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Afg‘on rubobi transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Afg‘on rubobida ichakdan ishlangan beshta tor mavjud. Birinchi juft torlar birinchi oktavaning “lya” tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning “mi” tovushiga (unison), uchinchi tor esa kichik oktavaning “si” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.



Afg‘on rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “mi” tovushigacha.



TANBUR ham noxunli mezrobli cholg‘ular turkumiga kiradi. U ko‘rsatgich barmoqqa kiyiladigan metall aralashmasidan yasalgan maxsus moslama, ya’ni noxun bilan chalinadi. Chalinganda faqat birinchi tordan foydalanilib, qolganlari qo‘shimcha sado olish uchun xizmat qiladi.



Tanbur asosan tut, o‘rik, yong‘oqqa o‘xshagan qattiq daraxtlar g‘o‘lasidan noksimon shaklda qilib o‘yib yasaladi. Kosaning ustki qismi tut daraxtidan yassi qilib yasalgan qopqoq bilan qoplanadi. Dastasi birmuncha uzun, ingichka va pardalarga bo‘lingan. Tanburning pardalari boshqa cholg‘ular pardalariga nisbatan qalinroq va balandroq qilib bog‘lanadi. Bu bog‘lanish tanbur torlarini ezib kerakli tovush hosil qilish uchun mo‘ljallangan. Tanbur ham ud soziga o‘xshab juda qadimiydir. Mashhur musiqashunos olim Forobiyning fikricha, qadimda tanburlar asosan ikki torli bo‘lgan va ayrim holatlarda uch torli tanburlar ishlatilgan. Qadim davrlarda Xuroson tanburlari va Bog‘dod tanburlari mashhur bo‘lgan. Bu tanburlar ko‘rinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobidagi tanbur haqidagi fikrlarni aynan keltirishni lozim deb topdik. *“Burungi musiqiy kitoblarimiz tanbur so‘zini TUNBURA shaklida yozadirlar-da, aslida yunoncha so‘z ekanini so‘zlaydilar. Bu cholg‘uning chindan-da yunondan kelib - kelmaganini*

biz tomondan tekshirish mumkin boʻlmadi. Biroq bu cholgʻuning sharqda juda eski bir narsa ekani maʼlumdir. Hijriy oʻninchi asrda oʻtkan Hofiz Darvesh Ali tomonidan tanburning burun ikki torli boʻlgani, soʻngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqiyshunosning unga bir tor ortdirgʻani toʻgʻrisida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrlarimizning kuchini ortdirgon boʻladir".

Tanburning yaratilishi va uning taraqqiyot jarayonini dastlab Movarounnahr hamda Xurosonning musiqa bilimdonlari oʻz asarlarida ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etganlar. Masalan, musiqashunoslar Abu Nasr Forobiy, Kotibiy Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Zayla Isfaxoniy va boshqalar oʻz asarlarining ayrim boblari hamda fasllarida tanburga oid muhim izohlarni berganlar. Tanbur atamasining maʼnosi turli yozma manbalarda turlicha izohlangan. Jumladan, Darvesh Ali Changiy Buxoriy (XII asr Tuhfat-us-surur) ning taʼkidlashicha, tanbur yunoncha soʻz boʻlib, "tan" - yurak, "bur" - tirnash maʼnosini anglatar ekan.

Tanbur uch xil sozlanadi:

- Birinchisi **"Rost"** mizrobi.

- Ikkinchisi **"Navo**" mizrobi. Navo maqomiga oid kuylar shu sozda ijro qilinadi.

- Uchinchisi **"Segoh"** mizrobi. Segoh, Iroq, Buzruk, Dugoh, maqomlariga oid kuylar shu sozda ijro qilinadi.

Hozirgi tanburlar toʻrt torli boʻlib, torlari mis va latun aralashmasidan tayyorlanadi. Dastaga 16 -19 tagacha yoʻgʻon qilib ichak pardalar bogʻlanadi. Bu pardalarni ijro etiladigan asarning ladiga qarab pastga yoki yuqoriga surish mumkin. Tanbur pardalari bir necha qavat ichaklardan tayyorlanib, qalinligi sababli dastadan ancha koʻtarilib turadi. Xuddi mana shuning oʻzi tanburning oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Sozanda pardaning balandligi hisobiga torni ezish yoʻli bilan turli tovushlar hosil qila oladi. Bogʻlama pardalardan tashqari tanburning qopqoq qismiga yana toʻrtta yordamchi yogʻoch parda, yaʼni xasparda oʻrnatiladi. Bu esa tanburda ijro etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tanburning ommalashuvida Maʼrufjon Toshpoʻlatov, Fazliddin Shahobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullaev, Matyusuf Xarratov, Rizqi Rajabiy, Turgʻun Alimatov, Sultonxon Hakimov, Yoqub Davidov, Shobarot Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Abdulla Umarov, Toir Qoʻziyev, Oʻktam Rasulov va boshqa sozandalarning xizmatlari benihoyadir.

Tanbur tovush qatori diatonikdir. Uning to‘rtta tori bo‘lib, birinchi , ikkinchi va to‘rtinchi torlari katta oktavaning “sol” tovushiga, uchinchi tori esa katta oktavaning “re”, “do” yoki “fa” tovushiga sozlanadi. U transpozitsiya qilinuvchi cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.



UD. Ijtimoiy hayot o‘z taraqqiyoti mobaynida aholining tabaqalarga bo‘linish jarayonini boshidan o‘tagani kabi musiqa san’atida ham ana shunday jarayon davom etmoqda. Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida musiqiy janrlar, cholg‘ularning bir qancha turlari kashf etildi. Ana shunday cholg‘u turlaridan biri uddir. O‘tmish olimlari ud cholg‘ular ichida mukammallik darajasiga yetkazilganligini ko‘rsatib o‘tganlar. Ud sozi Osiyo xalqlarining milliy cholg‘ulari qatoridan munosib joy olgan, garchand uni forslar «Borbad», xitoyliklar «Pipa», arab xalqlari «ud» va ko‘pchilik Ovropa xalqlari «Lutnya» kabi atamalarda atagan bo‘lsalar ham ularning asosi bir, ya’ni ud (udsimon) dir.



Ud arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi turlichadir. U birinchidan yog‘ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to‘y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan “iyd” iborasining ma’lum formasidir. Bu o‘rinda xushchaqchaqlik kayfiyati bag‘ishlovchi soz ma’nosida ham kelishi mumkin.

Udning mukammal soz sifatida namoyon boʻlishida uning uch xususiyati alohida ajralib turadi:

- tuzilishi (shakli, torlar miqdori, joylashishi, sozlanishi);

- imkoniyati;

- ommaviyligi.

Bu xususiyatlari xalq orasida mohir sozandalar yetishib chiqishida, musiqa ijodiyotida ustozona musiqa janrini vujudga kelishida muhim oʻrin egallaydi. Bu oʻrinda IV asr oxiri V asr boshlarida yashab ijod etgan zabardast «afsonaviy» sozanda, oʻz ijodida lahn, parda, xusravoniylar kabi qadimiy musiqiy janrlarda namunalar yaratgan Borbad faoliyatini misol qilish mumkin.

Musiqaning barcha ilmlar qatorida alohida fan sifatida shakllanishida oʻtmishda yashab ijod etgan Al Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Al Husayniy, Ash Sheroziy, Kavkabiy kabi allomalarning xizmatlari benihoyadir. Ularning ilmiy-nazariy tadqiqodlarida ud asosiy cholgʻu sifatida xizmat qilgani alohida taʼkidlanadi. Eroniy tillarda soʻzlashuvchi xalqlar orasida Borbad qadimdan maʼlum va mashhur boʻlsa, u iroqlik arab xalqlariga esa VIII asrda maʼlum boʻldi va arab musiqasini borbadda, udda birinchi bor Ibn Surayi ijro etdi. Ibn Sino davrigacha (X asrning ikkinchi yarmi XI asr boshi) “Borbad” termini ud soʻzining sinonimi sifatida ishlatildi. Buning tasdigʻi sifatida Al-Xorazmiyning (X asr) quyidagi jumlasini keltirish mumkin. ***“Borbad-bu ud. Borbad soʻzi oʻrdakning koʻkragi maʼnosini beradi, yaʼni bar - koʻkrak, bat - oʻrdak”.*** Mahmud Qoshgʻariyning (XI asr) “Devonu lugʻatit-turk» asarida ham Borbad soʻzi oʻrdak koʻkragi degan maʼnoni anglatishi qayd etiladi. Al-Forobiyning “Arab musiqasi, uning qonuniyati va tarixi” asarida ***“Ud sozi intervallarni nazariy jihatdan hisoblashda xizmat qilgan”*** degan jumla bor. Demak, ud sozining mukammal soz sifatida shakllanganligini sharq olimlari ham isbotlaganlar.

Oʻrta asr fanining allomasi ash-Sheroziy hamda Jomiyning musiqa nazariyasiga bagʻishlangan asarlarida koʻrsatilishicha, ud al-Forobiy zamonasi (X asr)gacha toʻrt torli musiqa asboblaridan boʻlgan va torlar maxsus nomlar bilan atalgan. Eng past tovush beradigan tor - “**bamm”** (eng past), ikkinchi tor “**maslas”** (arabcha uch barobar baland), “**masna”** (arabcha ikki barobar baland), toʻrtinchi tor esa “**zir”** (baland tovush beradigan) nomlari bilan ifodalangan. Al-Forobiy oʻz zamonasi talablariga, yaʼni musiqa amaliyotidagi ehtiyojlarga asoslanib, ud torlariga **“hodd”** (eng baland tovushli) deb atalgan torni qoʻshgan va

udning tovush diapazonini diatonik tovushqator nuqtayi nazaridan qariyb 4-5 pog‘onaga kengaytirgan.

Musiqaga oid nazariy risolalardan ma’lum bo‘lishicha, besh torli ud qariyb XVI asrgacha ishlatilib kelingan. Udning oltinchi, ya’ni “**muxtalif”** simi XIV-XV asrlarda paydo bo‘ldi va sozning yanada mukammallashuviga olib keldi.

Arab, Misr sozandalari ud cholg‘usi torlarini asosan do, sol, re, lya, mi (fa) tovushlariga sozlaydilar, bizda esa maqom, xalq kuylarining diapazoni kengligini hamda dutor, tanbur cholg‘ularining re tovushiga sozlanishini hisobga olib cholg‘u sozi bir oz o‘zgartirilgan. Ba’zi bir kuylarda udning 6-tori re yoki si tovushiga sozlanadi. Ud cholg‘usi nota yozuviga nisbatan bir oktava past eshitiladi, ya’ni transpozitsiya qilinadi. Yozilishi 2-oktava re tovushidan katta oktavaning mi tovushigacha, eshitilishi esa 1-oktavaning re tovushidan kontr oktavaning mi tovushigacha.



4. Urma va tirnab chalinadigan cholg‘ular

QONUN - Juda qadimiy cholg‘ularga mansub. Forobiyning fikricha qonun eramizning birinchi asrlarida Samarqand aholisi o‘rtasida juda mashhur bo‘lgan.

Forobiy o‘zining “Cholg‘ular haqida” nomli kitobining “Arfa”ga taalluqli bobida arfaga yaqin cholg‘u asbobi to‘g‘risida ma’lumot beradi.



Safi ad-Din esa qonunning ikki xil turi mavjud boʻlganligi toʻgʻrisida maʼlumot beradi. Har bir tovush tebranish natijasida alohida tor orqali hosil qilinadi. Qonun yunoncha soʻzdan olingan. Uning tovushqator asosi bir torli tarkibda tuzilgan “Monoxord” asbobiga berilgan nomdan kelib chiqqan. Demak qadimiy “Monoxord” cholgʻu asbobi arab xalqi ijodiy amaliyotida “qonun” nomi bilan ommalashgan. Bu jarayonning ilk davri X-XI asrlarga toʻgʻri keladi. Arab musiqashunos olimlarining bayon etishlaricha, taxminan XIV asrlarda yaratilgan qonun cholgʻusi Ussuriya poytaxtidan topilgan. Oʻsha davrlarda bu cholgʻuning chizma nusxasi fil suyagidan qilingan qutilarga chizilgan. Unga binoan qadimdagi qonun turi turli shakllarga boʻlingandir. Shu davrda qonun cholgʻusining uzunchoq shakli, yoysimon nusxalari, toʻrtburchak shakllari amaliyotda qoʻllanilgan. Bu cholgʻular shaklan har xil boʻlsada, uslubiy jihatlari, ovoz va ijrochilik imkoniyatlari bir-biriga juda oʻxshashdir. Qonun turli xalqlarda turlicha atalsa-da, unig asosi bir-biriga juda yaqin. Masalan: arab, turk va ozarbayjon xalqlarida “qonun”, uygʻurlarda “qalun”, armanlarda “kanon”, slavyanlarda “gusli”, karallarda “kantelli”, estonlarda “kanelli”, latishlarda “kokles”, yaponlarda “kato”, koreyslarda “kiyagin” nomlari bilan ataladi. Bu cholgʻular qonun va qonunsimonlar toifasiga kiradi. Ular qadimiy Nusxa, Qonun, Santur, Magna kabi cholgʻulardan tarqalganligi manbalarda keltirilgan. Buyuk olim Farmerning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida bu cholgʻu olxoʻri daraxti yogʻochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki, yaʼni yoʻgʻon tovush beradigan tomoni 81 santimetr, qarama-qarshi tomoni 40,5 santimetr ekanligi yozilgan. Oʻn uchta uchtadan iborat tori boʻlgan. Qonun ikki qoʻl barmoqlari yordamida chalingan. Bu cholgʻu asosan Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari sozi hisoblanib, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarida rivojlangan. Oʻrta Osiyo xalqlari orasida, xususan, Buxoroda 1917-yilgacha keng tarqalgan. Hozirgi qonunlar trapetsiyasimon yassi yogʻoch quti shaklida yasalmoqda. Qopqogʻi ham yogʻochdan yasalib, oʻng tomonining ozgina qismi, yaʼni xarrak joylashgan joyi teri bilan qoplanadi. 24 - 25 ta uchtalik ichak torlari uch oktavadan kengroq (do-re kichik oktavadan fa diez uchinchi oktavagacha) diapazonga ega. Quloqlari yaqinida torlar ostida har bir tovushni osongina yarim ton, bir ton, baʼzilarini esa bir yarim tongacha oʻzgartirish imkoniyatini beruvchi temir moslamasi boʻladi.

Qonun ijrochilik an’anasi xalqimiz merosida azal-azaldan mavjud bo‘lgan. Shu bois qonunni qayta tiklash unga bo‘lgan qiziqish, e’tibor samaralari ekanligini namoyish etadi. Ayni paytga kelib qonun cholg‘usini o‘rganish ta’lim jarayonining barcha tizimlarida yo‘lga qo‘yildi. Qonun cholg‘usi ijrosining qayta tiklanishida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyevning xizmatlari benihoyadir.

Qonun ijrosi o‘ng va chap qo‘lning ko‘rsatkich barmoqlariga taqilgan maxsus noxun (tirnoq) bilan tirnab chalish orqali amalga oshiriladi.

Qonunning diapazoni kichik oktavaning “re” tovushidan uchinchi oktavaning “fa” tovushigacha.



CHANG juda qadimiy cholg‘udir. Bu haqda uzoq o‘tmishda yashab, o‘lmas asarlarni yozib qoldirgan olimlar va shoirlar merosida yetarlicha ma’lumotlar mavjud.



Jumladan, Abu Nasr al-Forobiy (873 - 951) “Kitob al-musiqiy al-kabr” (Musiqa haqida katta kitob) risolasida cholg‘u asboblariga, xususan chang, rubob, nay kabi sozlarga alohida o‘rin ajratadi. Forobiy chang cholg‘usining jo‘r bo‘lish xususiyati haqida eslatib o‘tar ekan, bu sozning har xil adabiy majlislar va tantanavor marosimlarda cholg‘u ansambli tuzilmalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilganini mamnuniyat bilan qayd qiladi. Al Forobiy yaratgan asarlar uning zamondoshlari va undan

keyingi davr olimlarining musiqa ilmi nazariyasi boʻyicha ilgari surilgan fikrlari va risolalari uchun asos boʻldi. Ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1040-1123), Maʼsur Sheroziy (1236-1310), Muhammad al-Amuliy (taxminan 1354-1355 yil vafot etgan), Alisher Navoiy (1441-1501), Al-Husayniy (XV asr), Mavlono Kavkabiy hamda XVIII asr mashhur sozandasi va musiqiy nazariyotchisi Darvesh Ali Changiy soz va sozandalarning ijrochilik sanʼatini oʻz risolalarida taʼrif va tavsif etadilar. Yuqorida nomi tilga olingan yirik musiqashunos olim, mashhur changchi, bastakor va hofiz Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub «Risolai-musiqiy» kitobida chang sozi va sozandalari alohida qayd etiladi.

Olim yashagan davrda (XVII asr) changda 26 ta tor boʻlib, yettita parda mavjudligi diqqatga sazovordir. Changda oʻn ikki maqomning hammasini mukammal ijro eta bilish Darvesh Ali yashagan oʻsha davrda ham sozandaning yuqori darajadagi mahoratini namoyish etuvchi omillardan biri hisoblangan. Olim oʻz risolasida cholgʻuchilik sanʼatida dong taratgan Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Mavlono Zaynulobiddin - Rumiy kabi ustozlarni hurmat bilan tilga oladi.

Asrimizning boshlarida oʻlkamizning baʼzi shaharlarida cholgʻu sozi ustalari barcha asboblar qatori chang sozining tuzilishi va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash yoʻlida maʼlum darajada izlanganlar. Xorazmda Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar, Fargʻonada Usta Masaid Margʻiloniy, Usta Olim Komilov, Namanganda Usta Roʻzimatxon Isoboyev, Toshkentda Usta Usmon Zuparov va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Eski chang tovushqatori diatonik boʻlib, diapazoni uncha keng boʻlmagan, yaʼni “lya-bemol” katta oktavadan “re-bemol” ikkinchi oktavagacha edi. Xalq cholgʻuchilarining ana shu anʼanaviy changi asosida toʻliq xromatik tovushlarga ega boʻlgan yangi chang asbobi 1938-yilda yaratildi. Uning diapazoni “do” birinchi oktavadan “re diez” uchinchi oktavagacha boʻlgan tovushlarni oʻz ichiga oladi. Bu kiritilgan yangiliklar natijasida chang cholgʻusida oʻzbek kuylaridan tashqari barcha xalqlarning musiqa asarlarini va kompozitorlar ijodini oʻzlashtirishga imkoniyat yaratildi. Chang chaluvchi sozandaga qulaylik yaratish hamda ijro erkinligini taʼminlash maqsadida changga yogʻochdan uchta maxsus 82 santimetrlik oyoqlar oʻrnatildi. Ijro vaqtida chang sadolarini vaqti - vaqti bilan soʻndirib turish uchun pedal mexanizmi bilan boshqariladigan dempfer qurilmasining oʻrnatilishi natijasida chaqqon texnik mahorat bilan ijro etiladigan asarlarning sof

sadolanishiga puxta zamin yaratildi. Changda yaxshi tovush chiqish-cholg‘uning sifatiga bog‘liqdir, shuningdek, uni sozlashda cholg‘u torlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e’tiborni qaratish lozim. Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg‘u oldida o‘tirish holatidir. Changning balandligi o‘tirgan ijrochining qo‘l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa ijrochining bo‘yi va qo‘llari uzunligiga mos bo‘lishi kerak. Pedaldan foydalanish texnikasi tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho‘plarning torlarga urilgan zarblariga bog‘liq. To‘liq va quyuq tovush chiqarish uchun cho‘plar bilan xarraklar ustiga o‘rnatilgan chang torlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Cho‘plar bilan torlarga urilganda chuqur, to‘la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo‘lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo‘ladi.

Chang cholg‘usining ommalashuvida mashhur changchilar: Fozil Xarratov, Faxriddin Sodiqov, Baxtiyor Aliyev, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne’matov, Tohir Sobirov, Temir Mahmudov, Fazilat Shukurova, Tilash Xo‘jamberdiyev va boshqalarning xizmatlari benihoyadir.

Chang cholg‘usi diapazoni quyidagicha:



DUTOR O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. Dutorda ikkita ichak yoki ipakdan qilingan ip bo‘lib, bir yarim oktava diapazonga egadir. Dutor asosan noksimon shaklda yasaladi. Tasviriy san’at yodgorliklari va yozma tarixiy manbalar o‘zbek xalq cholg‘ularini, jumladan dutorni qadimdan ijro etilib kelinishiga guvohlik beradi.



Abu-Nasr Muhammad Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar o‘z asarlarida dutor haqida ancha to‘liq ma’lumotlarni berib o‘tganlar. Dutor ikki qismdan (dasta va kosa) iborat bo‘lib, bu qismlarni birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki qobirg‘achalarning birlashtirilishidan yasalishi mumkin. O‘yma dutor Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochidan o‘yib ishlanadi. Qobirg‘ali dutor ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtacha egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Odatda, dutor yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13-14 ta ichak parda bog‘lanadi. Cholg‘uning umumiy uzunligi 1200-1300 millimetrni tashkil qiladi. Ayrim joylarda 750-800 millimetrli dutorlar ham uchraydi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktava oraliqlariga sozlanadi. Bu sozlardan ko‘proq qo‘llaniladigani “Munojot” (kvinta) va “Tanovor” (kvarta) sozlaridir. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo‘lmay, ijrochi va ashulachi xohishiga binoan turlicha balandlikda sozlanishi mumkin.

Dutor ansamblda va yakka soz sifatida qo‘llaniladi. Ovozi past, mayin bo‘lgani sababli ko‘proq yakkanavoz tarzida ham qo‘llaniladi. Shuning uchun ham maxsus “Rohat”, “To‘rg‘ay”, “Dutor bayoti” kabi dutorda yakka ijro etish uchun mo‘ljallangan qator kuylar mavjud.

Dutor transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. birinchi tori birinchi oktavaning “re” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.



Dutor altning diapazoni birinchi oktavaning “mi” tovushidan uchinchi oktavaning “lya” tovushigacha.

5. Kamonli cholg‘ular

G‘IJJAK - kamonli cholg‘ular turiga kiradi. Ko‘rinishi va chalinishi jihatdan boshqa o‘zbek xalq cholg‘ularidan farq qiladi. G‘ijjak juda qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi.



Ayrim manbalar orqali bizga yetib kelgan ma’lumotlarga qaraganda, XV asr Samarqand rassomchilik maktabida ishlangan miniatyuralarda tasvirlangan dastlabki g‘ijjaklar ikki simli bo‘lganligi ma’lum. Kosasi yarim shar shaklida, dastasi uzun, ot dumi tortilgan kamon bilan chalingan. Dasta yuqoriga tomon yo‘g‘onlashib borgan. Keyinchalik g‘ijjakning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uchinchi tor qo‘shilgan. Bu haqda mashhur olim Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobida shunday yozadi: *“Bu ham yoy bilan chalinadir. Chanog‘i Hindiston javzidir. Tut yog‘ochidan, ma’dandan ham yasalsa bo‘ladi. Sopi 40 - 42 santimetr qadar uzunlikda bir yog‘ochdir. Chanoqdan tuban 20-23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug‘i bor. Chanog‘i qalin teri bilan qoplanadir. Xarrak butun cholg‘ularga teskari, chanoqning yuqori tomoniga qo‘yiladir, tori uchtadir”.*

Uch torli g‘ijjak diapazoni bir yarim oktavaga yaqin bo‘lgan. (taxminan birinchi oktava “mi” bemoldan boshlab). Boburning ma’lumotlariga qaraganda, g‘ijjakning uchinchi tori XV asrda shuhrat qozongan ijrochi va bastakor Qul Muhammad Udiy tomonidan joriy etilgan. Uch torli g‘ijjaklar ham kvarta oralig‘ida sozlangan. Bu g‘ijjaklar XX asr boshlarigacha qo‘llanilib kelingan. Keyinchalik g‘ijjakning diapazonini kengaytirish maqsadida to‘rtinchi, ya’ni sol tori qo‘shildi. Sozlar kvinta oralig‘iga o‘tkazilgan. Bu cholg‘u o‘zbeklardan tashqari Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari o‘rtasida ham keng tarqalgan. G‘ijjak asosan tut, yong‘oq va o‘rik daraxtlaridan yasaladi. Asosan baliq terisi bilan qoplanadi. Hozirda yoysimon kamon o‘rniga ijro imkoniyatlari kengroq bo‘lgan skripka cholg‘usi smichogi ishlatilmoqda.

Sozlanishi:

1-tor ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, 2-tor birinchi oktavaning “lya” tovushiga, 3-tor birinchi oktavaning “re” tovushiga, 4-tor kichik oktavaning “sol” tovushiga sozlanadi.

Ishlatiladigan diapazoni kichik oktavaning “sol” tovushidan, to‘rtinchi oktavaning “lya” tovushigacha. Hozirda xalq ijrochilari ochiq simlarni kamroq ishlatish va milliy bezak, qochirim, nolalarning qo‘llanilishini osonlashtirish maqsadida g‘ijjak chalishda kvarta sozidan ko‘proq foydalanadilar.

Mashhur g‘ijjakchi sozandalardan To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatov, Doni Zokirov, G‘ulomjon Hojiqulov, O‘lmas Rasulov, Murod Toshmuhamedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Komilov, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayev, O‘tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev va boshqalar el orasida mashhur.

G‘ijjak - to‘rtta tordan iborat cholg‘u bo‘lib, birinchi tori ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, ikkinchi tori birinchi oktavaning “lya” tovushiga, uchinchi tori birinchi oktava ning “re” tovushiga, to‘rtinchi tori kichik oktava ning “sol” tovushiga sof kvinta oralig‘ida sozlanadi.



G‘ijjakning diapozoni kichik oktava ning “sol” tovushidan to‘rtinchi oktava ning “lya” tovushigacha.



SATO tanburning bir ko‘rinishidir. Avvalda oddiy tanburdan sato sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirda tanburning biroz kattalashtirilgan va ko‘rinishi biroz o‘zgartirilgan turidan foydalanilmoqda. Sato ijrosida noxun o‘rniga g‘ijjak va skripka cholg‘ularini ijro etishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi. Satoning tovushi juda mayin va ulug‘vordir. Unda asosan mungli va og‘ir kuylar ijro etiladi. Sato dutor, tanbur cholg‘ulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus

ovoz kuchaytirish moslamalarisiz katta ansambl va orkestrlarda ishlatilishi kutilgan natijani bermaydi. Milliy cholg‘ularimiz qatoridan joy olgan sato kamon bilan ijro qilinadigan cholg‘ulardan hisoblanadi. Ammo sato noxun bilan ijro etilsa, tanburga aylanadi.



Satoning to‘rtta tori bor, torlar kuylar amrida sozlanadi. Satoning tovushi inson tovushiga yaqin. Satodan chiqqan navo xuddi so‘zsiz qo‘shiqday yangraydi.

Sato cholg‘usi ijrochilari ko‘pchilikni tashkil etmaydi. 1940-1950 - yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining sozandasi A.Baraev shu cholg‘u ijrosi bo‘yicha mashhur bo‘lgan bo‘lsa, satoni ommalashtirgan, elga manzur qilgan mashhur sozanda Turg‘un Alimatovdir. Sato ko‘hna cholg‘ular qatoriga kirib, uning qayta tiklanishi musiqa olamida katta yangilik bo‘ldi.

Satoning diapazoni ham tanbur bilan bir xil bo‘ladi.



MUSIQIY ASARLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH

Kalit so‘zlar: musiqiy asar, badiiy obraz, kulminatsiya, ijro imkoniyatlari

Asarning xarakteri, tonalligi, badiiy obraz yo‘nalishi, kulminatsiyasi va umumiy tuzilishini anglab olish to‘laqonli ijroga yordam beradi. Bularni aniqlashda o‘qituvchining yordami zarur. Asar nazariy jihatdan o‘zlashtirilgandan so‘ng uning amaliy ijrosiga o‘tiladi. Musiqa asarlari boshidan ohirigacha bir xil texnik qiyinchilikda bo‘lmasdan, balki uning ba’zi qismlari boshqalariga nisbatan murakkabroq bo‘lishi mumkin.

Bunday paytda shu qiyin oʻrinlar alohida ajratilib, ularning ijrosi ustida maxsus mashqlar oʻtkazish tavsiya etiladi. Lekin bunday ishlash jarayoni juda uzoq davom etmasligi kerak. Shu qiyin qismning ijrochi tomonidan mustaqil ravishda bekamu koʻst ijrosiga erishilsa ham, koʻp hollarda asarni boshidan oxirigacha ijro etganda xuddi ana shu qism asarning umumiy yoʻnalishi bilan qoʻshilmasdan, alohida ajralib qolishi mumkin. Shu sababli qiyin qismlarni takrorlashda shu qismdan bir necha takt oldinga va keyingilarini qoʻshib ijro etish tavsiya etiladi. Asar oʻzlashtirilayotgan paytda ijrochining imkoniyatlariga mos boʻlgan tezlikni tanlash va ijroning bir maromda boʻlishga erishish kerak boʻladi. Musiqa asarining ustida toʻgʻri ishlay bilish ijro mahoratini oshirishning omillaridan biridir. Cholgʻu ijrochiligi yoʻnalishlarining tajribasida baʼzi musiqa asarlarini oʻzlashtirish ishi konsert yoki yakuniy nazoratgacha yetib bormaydi. Bu asarlar sinf ishi sifatidagina oʻzlashtiriladi. Sinf ishidan asosiy maqsad musiqa asarining umumiy mazmuni bilan tanishish, unda ishlatiladigan ijro koʻnikmalarini oʻzlashtirish va shular asosida bayon qilinmoqchi boʻlgan musiqaviy kechinmalarni cholgʻu yordamida talqin eta bilishdir. . Sinf ishi uchun ajratilgan musiqa asarlari ustida ishlash bilan notaga qarab chalish kabi mashgʻulotlarning foydali tomoni koʻp. Bu ikki holda ham oʻquvchi xilma-xil musiqa asari bilan qisqa vaqt ichida tanishish imkoniyatiga ega. Ayni paytda, sinf ishi bilan notaga qarab chalish mashgʻuloti maʼlum darajada bir-biridan farq qiladi. Notaga qarab chalishda oʻquvchi material bilan bir marta epizodik tanishish imkoniyatiga ega boʻlsa, sinf ishi jarayonida u asar bilan toʻlaroq va asosli tanishib, oʻzlashtirishi mumkin. Sinf ishi bilan shugʻulanadigan oʻquvchi, musiqa asarini bir necha bor takrorlashi tufayli oʻzi uchun shu asarning mohiyati, mazmuni, tuzilishi va boshqa sifatlarini toʻlaroq ochishi mumkin. Shu asosda asarning ijodiy gʻoyasi va unda bayon etilayotgan badiiy fikrlar oʻquvchiga tobora tushunarli boʻlib boradi.

Sinf ishi uchun tanlanadigan repertuar oʻzining xarakteri, tuzilishi, mazmuni va boshqa koʻrsatkichlari jihatidan rangbarang boʻlishi zarur. Bundan tashqari, repertuardan oʻrin olgan asarlarning shakli, unda bayon etiladigan histuygʻularning boyligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muhimi, sinf ishi uchun tanlangan asarlar oʻquvchilarga yoqishi, ularda katta qiziqish uygʻotishi kerak. Agar asosiy repertuar oʻquvchi uchun majburiy boʻlsa, sinf ishi uchun asarlarni oʻquvchining xohishiga qarab tanlash mumkin. Shu boisdan ham bu yerda oʻqituvchi oʻquvchining istagiga qarshi emas, balki unga nisbatan xayrixoh boʻlishi maqsadga

muvofiq. Sinf ishida foydalaniladigan musiqa asarlarining murakkabligi esa o‘quvchining xaqiqiy imkoniyatlariga qaraganda ma’lum darajada qiyinroq bo‘lishi mumkin. Bu asarlar konsertda yoki yakuniy nazoratlarda ma’lum darajada ijro etilmasligini hisobga olsak, o‘qituvchi yuqorida aytilgan prinsipni qo‘llashi to‘g‘ri bo‘ladi. Sinf ishi dastlabki paytda albatta o‘qituvchining ishtiroki va nazorati ostida o‘tishi kerak. Keyinchalik o‘quvchining tajriba va ko‘nikmalari ortib borgan sari o‘qituvchining ishtiroki kamayib boradi va xatto musiqa asarlari bilan tanishish o‘quvchining mustaqil mashg‘uloti paytida amalga oshiriladigan bo‘lishi ham mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga umumiy ko‘rsatmalar berishi bilan chegaralanadi. O‘qituvchi uchun muhimi, sinf ishi hamda musiqa asari bilan tanishish o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishidir. Sinf ishi uchun asarlarni o‘zlashtirish asosiy repertuardagi asarlar ustida ishlashdan farq qiladi. Asosiy repertuardagi qiyin o‘rinlar o‘quvchi bir necha bor takrorlasa va nihoyat uni yod olsa, sinf ishidagi asarlar ijrosida u o‘z e’tiborini musiqa asaridagi badiiy obrazlarni yaxlitligicha talqin qilishga, asar shaklini o‘z ijrosi bilan umumlashtirishga qaratishi kerak. Bunda albatta, asardagi barcha ko‘rsatma va belgilarga to‘la rioya qilishga e’tibor berish kerak. Xuddi mana shunday ijro o‘quvchining rivojlanishiga yordam beradi. Sinf ishida o‘quvchining umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadigan imkoniyatlar shunday ko‘pki, bunday mashg‘ulot bilan muntazam ravishda shug‘ullangandagina shu imkoniyatlar to‘la ochilishi mumkin. Talaba sinf ishi uchun tanlangan asarlar ijrosiga muntazam ravishda vaqt ajratgan holdagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. O‘qituvchining musiqiy dunyoqarashini, eshita olish tajribasini va professional jihatlarini kengaytirishda sinf ishlaridan samarali foydanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida sinf ishalaridan foydalanish o‘quvchining umumiy musiqiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir.

Notaga qarab ijro qilish

Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda qo‘yidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin: nota ko‘rinishining o‘quvchi ongiga etib borishi; o‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi; kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi. Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qilib (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar

jarayonining biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda koʻzlangan natijaga erishish qiyin boʻladi. Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholgʻuchi keyingi qismini koʻrib, uning ijrosiga tayyorgarlik koʻrishga tayyorlanadi. Tajribasiz oʻquvchilar koʻp holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi. Diqqat-e'tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishini ta'minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlatirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlangʻich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda oʻquvchi oʻz e'tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keyingi taktlarini ijro etishda ham qoʻllanadi. Mashgʻulotlar yordamida oʻquvchiga berilayotgan vazifa asta -sekin murakkablashtiriladi, lekin bu vazifa oʻquvchining imkoniyatlari darajasida boʻlishi kerak. Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlatirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan koʻrsatmalar musiqa pedagogikasida alohida oʻrin tutadi. Koʻzga koʻringan ijrochi - oʻqituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashgʻulotlari qatoridan oʻrin olishi shart. Oʻquvchi muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shugʻullangan taqdirda turli davrga oid boʻlgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi. Notaga qarab ijro etilayotgan musiqa asarlarining hammasi ham kelajakda oʻquvchi tarafidan yod olinishi shart emas, balki ular oʻquvchining fikrlash, yangilik ochish va yangi, oʻziga ma'lum boʻlmagan taassurotlar bilan tanishish ehtiyojini qondirish uchun ijro etiladi. Notaga qarab ijro etayotgan sozandaning fikrlashi birmucha faollashadi, uning musiqiy qoʻllanmalarni qabul qilib olishi ma'lum darajada oʻtkirlashadi. Shu bilan birga oʻquvchi notaga qarab ijro etayotgan musiqa asariga butun vujudi bilan beriladi va uning his-tuygʻulari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etadi. Bundan kelib chiqadiki, notaga qarab ijro etish mashgʻulotlari ijrochi repertuar, uning nazariy va amaliy bilimlarini boyitibgina qolmasdan, balki umuman musiqiy fikrlash jarayonining sifatini yaxshilaydi. Notaga qarab ijro etish oʻquvchining umumiy musiqiy rivojlanishida eng samarali yoʻllardan biridir. Cholgʻu ijrochiligi ta'limi oʻz oldiga oʻquvchining umumiy musiqiy qobiliyatini, professionalligini rivojlantirishni assosiy maqsad qilib qoʻyar ekan, shubha yoʻqki, notaga qarab ijro etish ana shu maqsadning amalga oshishida asosiy va maxsus vosita vazifasini

bajaradi. Notaga qarab ijro etishning muhimligi tan olingan holda, amalda unga ba’zan keraklicha e’tibor berilmaydi. Albatta, notaga qarab ijro etishga qancha ko‘p vaqt sarflansa, bu o‘z navbatida, ma’lum ijobiy natija berishi mumkin. Lekin bu jarayonni tashkil qilishda ongli nazorat yo‘lga qo‘yilishi lozim. Tajribadan ma’lumki, sozandaning notaga qarab ijro etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ichki eshitish qobiliyati ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Ya’ni bunday sozanda nota belgilariga ko‘zi tushishi bilanoq shu tovushni ijrosiz eshita oladi. Demak, sozandadagi «ko‘rish orqali eshitish» qobiliyati qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning notaga qarab ijro eta olishi ham shunchalik sifatli bo‘ladi. Notaga qarab ijro etishning muhim shartlaridan yana biri ijrochining nigohi nota tekstidan uzilmasligidir. Cholg‘u torlari va pardalar joylashuvini yaxshi o‘zlashtirib olmagan o‘quvchilarning nigohlari dam nota tekstiga, dam cholg‘u grifiga ko‘chib turadi. O‘quvchi notaga qarab, uning balandligini belgilab olgandan so‘ng, nigohini cholg‘u grafikasidagi pardalarga ko‘chirishga majbur, chunki pardalarni yaxshi o‘zlashtirib olmaganligi sababli grifga qaramasdan barmoqlarni pardaga aniq qo‘ya olmaydi. Navbatdagi notani aniqlashda o‘quvchi yana nigohini nota tekstiga ko‘chiradi. Bunday vaziyatda ko‘p o‘quvchilar tekstning qaysi joyiga kelganliklarini yo‘qotib qo‘yadilar. Kerakli joyni topish uchun esa bir oz vaqt talab etiladi. Mana shu kamchiliklar natijasida o‘quvchining ijrosida noto‘g‘ri to‘xtashlar sodir bo‘ladi. Bu esa asarning uzluksiz ijrosiga putur etkazadi. Shu sababli ijrochi nigohining bir manbadan ko‘chishi qanchalik kam bo‘lsa, shunchalik ijro uchun foydali bo‘ladi. Demak, cholg‘u ijrochiligi ta’limida o‘quvchi - sozandaning cholg‘u grafaga qaramasdan kerakli pardani topa bilishni boshqa ko‘nikmalar qatori muntazam ravishda o‘rganib borishi notaga qarab bemalol ijro eta olish qobiliyatini rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Notaga qarab ijro etishni amalga oshirayotgan paytda talabadan nota yozuvidagi barcha belgilariga qat’iy rioya qilishni birdaniga talab qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchi birinchi navbatda e’tibor berishi kerak bo‘lgan narsalarni olindan tushuntirib, belgilab berishi katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, o‘quvchi asarlardagi yaxlit musiqiy fikrning boshlanishi va tugallanishiga birinchi navbatda e’tibor berishi kerak. Ya’ni asarda bayon etilgan tugal fikrning uzilib qolishi yoki tushunarsiz ijro etilishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Notaga qarab ijro etishni asarda bayon etilayotgan musiqiy fikrlar asosida tashkil qilish yaxshi natija beradi. Notanish musiqa asarlarini notaga qarab ijro

etishdan oldin koʻzdan kechirib, tanishib chiqish, ya’ni shu asarni cholgʻusiz «ijro etish» tavsiya qilinadi. Bunda, birinchidan, sozanda bevosita ijro harakatlaridan xoli boʻladi; ikkinchidan, asarning tuzilishni oʻrgatish imkoniyati tugʻuladi, Qoʻshimcha qilib aytish mumkinki, oʻquvchi asarning nota yozuvini koʻzdan kechirib, cholgʻusiz «dilda» ijro etishi uning ichki eshituv qobiliyatini ma’lum darajada rivojlantirib boradi. Tajriba guvohlik beradiki, musiqa asari bilan bunday tanishuvdan keyin ijro engil va aniqroq amalga oshiriladi, sodir boʻlishi mumkin boʻlgan xatolar kamayadi va ijro erkinligi ta’minlanadi.

Mavzu boʻyicha savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil shugʻullanadigan sozanda talabalarga qanday talablar qoʻyiladi?
2. Musiqiy asarni yod olishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
3. Talabalar orasida tez tez uchrab turadigan kamchiliklar nimalardan iborat?
4. Sozandaning xotirasini takomillashtirish uchun nima qilish kerak?
5. Sozanda asar tanlashda nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Talabalarga individual yondoshishning afzalliklari nimalardan iborat?

Mustaqil mashgʻulotlar:

1. Oʻrganajak asarni yodlashga urinish.
2. Oʻrganish jarayonida yoʻl qoʻyiladigan kamchiliklarni aniqlab, bartaraf etish.
3. Xotirani mustaxkamlovchi mashqlarni bajarish.

MASHGʻULOTLAR DAVOMIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 28-avgust IX sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” amaliy hujjat boʻlib, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni dunyoning rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi darajasiga yetkazish va yosh avlodni yuksak maʻnaviy, axloqiy va chuqur bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qoʻydi.

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda boshqa fanlar qatorida musiqiy ta’lim va tarbiyani tizimli shakllantirishda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa ta’limi samaradorligini oshirishda talabalarning musiqiy ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirishda pedagogik texnologiyalarni va interfaolning o‘rni katta.

Musiqiy mashg‘ulotlarning boshqa fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardan farqi shundaki, ular asosan amaliy va yakka tartibda o‘tkaziladi. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik interfaol usullarning qay biridan unumli foydalanishni bilish kerak. Quyida o‘quv mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazish uchun musiqiy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin bo‘lgan usullardan misollar keltiramiz. Bu usullardan asosan ansambl ijrochiligi mashg‘ulotlarida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chigil yozdi (Warm up) Dars boshlanishida bu usul talabalarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida talabalar diqqatini mashg‘ulotning keyingi bosqichiga bog‘lash uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi musiqiy asarlardan parchalar ijro etishi, she’rlardan parcha o‘qishi, qiziqarli o‘yinlar tashkil etishi mumkin.

Bahs-munozara (Debate) Alohida dars ko‘rinishida bo‘lib, o‘tilgan mavzuga (asar, kuy)ga doir bahsli, tortishuvli muammolarni ikki guruhga bo‘linib hal etish. Bu usulni qo‘llagan o‘qituvchi talabalarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruh “tarafdorlar”, ikkinchi guruh “qarshilar”. O‘rtada tayinlangan boshlovchi bahsni muvozanatga solib turadi. Guruh a’zolari navbat bilan chalingan yoki eshitilgan asar, kuy to‘g‘risida o‘z tushunchalarini, mulohazalarini bayon qiladilar.

Zanjir mashqi (Chain drill) Talabalar mashg‘ulot paytida o‘rganilayotgan musiqiy asarni qismlarga bo‘lib, navbatma-navbat ijro etishlari orqali yaxlit ko‘rinishda umumlashtirish usuli. Masalan: 1-talaba: Bastakorning tarjimayi holi 2- talaba: Bastakorning ijodiy faoliyati 3- talaba: Asar mazmuni, tempi, usuli haqida fikrini bayon etadi 4- talaba: O‘rganilgan asarni bir qismini ijro etadi 5- talaba: Asarni davom ettiradi 6- talaba: Asarga ritmik jo‘r bo‘ladi. Mashg‘ulotni shu tarzda davom ettirish mumkin.

Ijodiy ish (Project work) Talabalarning ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini shakllantiradigan uslub. Bu uslubda talabalarning darsdan bo‘sh paytlarida mustaqil o‘rgangan musiqiy asarlari tinglanib, dars jarayonida o‘qituvchi tomonidan nazariy ko‘rsatmalar beriladi.

Intilish (Motivation) Talabalar darsda salohiyatiga qarab ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. O‘zi qiziqqan musiqiy asarni ichki hissiyot bilan berilib o‘rganish ichki intilishdir. Ikkinchi talaba musiqiy

asarni faqat baho olish uchun yoki boshqalar majburlashi asosida oʻrgansa, uni tashqi intilish deyiladi. Bu usul orqali oʻqituvchi talabalarning ijodiy qobiliyati qay darajada ekanligini anglab, ularning intilishlarini hisobga olib faoliyat yuritadi.

Yoʻnaltirish (Eliciting) Talabaga yoʻnaltirilgan yondashuv uslubidagi yangi texnologiya boʻlib, oʻzlashtirish qiyin boʻlgan musiqiy asarni oʻrganishda talabaning oʻzini ishlatish va pirovard natijada xatolarini toʻgʻrilab borishdir. Mazkur usulning afzalligi shuki, oʻqituvchi talabaga musiqiy asarni ijro etib bermay, balki musiqiy asarni ijro etishga va mazmunini oʻzlari tushunib olishlariga imkon beradi.

Pedagogik texnologiya oʻqituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha boʻlgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, oʻqituvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida yuqorida koʻrsatilgan qanday texnolgiyani tanlashi uning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan. Bunda talabalarning musiqiy bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, Pedagogik texnologiyalar oʻrganilayotgan asarning mazmun-mohiyati, oʻzlashtirilish darajasi asosida tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyati amaliyotda talaba ma’naviyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashga oʻrgatish, bilim olishga qiziqishlarini uygʻotish, ya’ni talaba faoliyatini oshirish demakdir.

AMALIY QISM

Aliqambar

Allegro moderato

Xorazm xalq kuyi





Dugoh taronasi

O'zbek mumtoz musiqasi

Og'irroq



Tamanno

M. Murtazoyev




f
mf
rit.

Azim daryo

Xalq kuyi




Allegro
p
mf
mf
f
p
mf
rit.

Guljamol

O'zbek xalq kuyi

Allegro moderato




3
p
tr
tr
tr
tr
p
mf
3
rit.

Qo'shchinor

Xalq kuyi



Norim-norim

Xorazm xalq kuyi




p
mf
f
p
f
ff
f
p
rit.

Guluzorim

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi

O'rtacha tez




mf
f
mf
f
mf
f
mf


mf
f
mf
f
rit..

Hojiniyoz I

Xalq kuyi



Hojiniyoz II

Xalq kuyi



Nasrulloiy

Farg'ona-Toshkent yolidagi
mumtoz xalq kuylaridan




f
p
p


f


f







MUSHKILOT BO‘LIMI
TASNIFI BUZRUK




43
49
55
Bozgo'y
61
V xona
67
73
79
85
Bozgo'y


91
VI xona
97
103
109
115
121
Bozgo'y
127
VII xona
133


139
145
151
157
Bozgo'y
163
VIII xona
169
175
181


187
193
199
Bozgo'y
205
211
attacca

MUHAMMASI BUZRUK




37
43
49
Bozgo'y
55
61
III xona
67


73
79
Bozgo'y
85
91
97
IV xona


103
109
Bozgo'y
115
121
127
1.
2.
attacca

MUHAMMASI NASRULLOI




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y
1.
2.
attacca

SAQILI ISLIMI




43
49
III xona
55
61
67
IV xona



V xona









VI xona









attacca

SAQILI SULTON




49
II xona
55
61
67
73
Bozgo'y
79
85
91


97
III xona
103
109
115
121
Bozgo'y
127
133
139


145
IV xona
151
157
163
169
175
181
187

TASNIFI ROST




65
IV xona
74
83
91
99
Bozgo'y
V xona
108
116
124


132
140
148
156
Bozgo'y
164
VI xona
172
180
188


196
204
212
220
228
236
Bozgo'y
VII xona
244
252


260
268
276
284
292
300
308
316


324
331
Bozgo'y
rit.
attacca

GARDUNI ROST



V xona



VI xona



VII xona





VIII xona



IX xona



X xona





XI xona

XII xona

Bozgo'y

XIV xona

XV xona

attacca

MUHAMMASI ROST




Bozgo'y
III xona
Bozgo'y


IV xona
Bozgo'y

MUHAMMASI USHSHOQ




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
IV xona
85
91


97
V xona
103
109
VI xona
115
121
127
Bozgo'y
133
139
attacca

MUHAMMASI PANJGOH




49
III xona
55
61
67
73
79
IV xona
85
91
Bozgo'y


97
103
109
V xona
115
121
127
VI xona
133
139


145
151
157
VII xona
163
169
175
VIII xona
181
187
Bozgo'y


193
199
205

SAQILI VAZMIN




Bozgo'y
III xona
IV xona


Bozgo'y
attacca

SAQILI RAK-RAK




49
II xona
55
61
67
73
Bozgo'y
79
85
91

III хона



Bozgo'y



IV xona









Bozgo'y









MUSHKULOT CHOLG‘U BO‘LIMI
TASNIFI DUGOH




49
55
Bozgo'y
61
V xona
67
73
Bozgo'y
79
85
91
VI xona


97
103
109
115
121
127
Bozgo'y
133
139

145

VII xona



151



157



163



169



175



181

Bozgo'y



187



GARDUNI DUGOH



PESHRAVI DUGOH




IV xona
Bozgo'y
V xona
Bozgo'y
VI xona
Bozgo'y


VII xona
Bozgo'y
VIII xona
Bozgo'y
IX xona
Bozgo'y


X xona
Bozgo'y
attacca

SAMOI DUGOH


♩ = 72
Bozgo'y
mf
7
I xona
13
Bozgo'y
19
25
II xona
31
III xona
37
Bozgo'y


43
49
IV xona
55
V xona
61
VI xona
67
73
Bozgo'y
79
85
VII xona


91
97
VIII xona
103
IX xona
109
X xona
115
1.
121
2.
attacca

MUHAMMASI DUGOH




Bozgo'y
III xona
IV xona


Bozgo'y
attacca

MUHAMMASI CHORGOH




43
49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y
85


91
97
V xona
103
109
Bozgo'y
115
121
127
attacca

MUHAMMASI HOJI XO‘JA




43
49
Bozgo'y
55
61
67
III хопа
73
79
Bozgo'y
85


91
97
IV xona
103
109
115
Bozgo'y
121
127
attacca

MUHAMMASI CHOR SARXONA




43
49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y


IV xona
Bozgo'y
attacca

SAQILI ASHKULLO




43
49
55
IV xona
61
67
73
79
V xona
85


91
97
103
VI xona
109
115
121
127
VII xona
133


139
145
151
VIII хопа
157
163
169
175
IX хопа
181


187
193
199
X хопа
205
211
217
223

TASNIFI NAVO



VIII xona

IX xona

X xona

XI xona

XII xona

XIII xona

Bozgo'y

XIV xona

attacca

TARJEI NAVO




IV xona
Bozgo'y
V xona
Bozgo'y

GARDUNI NAVO



MUHAMMASI NAVO




49
III xona
55
61
Bozgo'y
67
73
79
IV xona
85
91
V xona


97
103
109
VI xona
115
121
VII xona
Bozgo'y


VIII xona
IX xona
Bozgo'y

MUHAMMASI BAYOT




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
IV xona
79
85
91
Bozgo'y
97


103
109
V xona
115
121
VI xona
127
133
139
VII xona
145
151


157
Bozgo'y
163
169
attacca

MUHAMMASI XUSAYNIY




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y
85
91
attacca

SAQILI NAVO




49
II xona
55
61
67
73
Bozgo'y
79
85
91

97 III xona



103



109



115



121 IV xona



127



133



139




V xona
2.
145
151
157
163
169
VI xona

VII xona









Bozgo'y









VIII xona



TASNIFI SEGOH




49
55
III xona
61
Bozgo'y
67
73
IV xona
79
85
91


97
103
109
115
Bozgo'y
121
127

TARJEI SEGOH




49
55
III xona
61
67
73
79
85
Bozgo'y
91
IV xona


97
103
109
115
121
127
Bozgo'y
133
139

XAFIFI SEGOH




43
49
IV xona
55
Bozgo'y
61
V xona
67
Bozgo'y
VI xona
Bozgo'y


VII xona
Bozgo'y
VIII xona
Bozgo'y
1.
2.

GARDUNI SEGOH




49
Bozgo'y
55
IV xona
61
Bozgo'y
67

MUHAMMASI SEGOH




43
Bozgo'y
49
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y
85


91
IV xona
97
103
109
Bozgo'y
115
121
127

MUHAMMASI AJAM




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
IV xona
85
91


97
V xona
103
109
VI xona
115
121
127
VII xona


VIII xona
Bozgo'y

MUHAMMASI MIRZAHAKIM




49
55
61
III xona
67
73
79
IV xona
Bozgo'y



SAQILI BASTA NIGOR




61
67
Bozgo'y
73
79
85
91
III xona
97
103
109
115
IV xona


Bozgo'y

TASNIFI IROQ




49
55
Bozgo'y
61
IV xona
67
73
79
85
Bozgo'y
91
V xona


97
103
109
115
121
127
Bozgo'y
133
VI xona
139

145



151



157



163



169



175



181 Bozgo'y



187 VII xona




193
199
205
211
217
223
229
235
Bozgo'y


241
VIII xona
247
253
259
265
271
277
283


289
295
301
307
313
319
325
attacca

TARJEI IROQ




43
Bozgo'y
49
IV xona
55
61
67
73
Bozgo'y
79
V xona
85


91
97
103
109
Bozgo'y
VI xona
115
121
127
133


139
145
Bozgo'y
151
VII xona
157
163
169
175
181

MUHAMMASI IROQ




49
Bozgo'y
55
61
III xona
67
73
79
Bozgo'y
85
91


IV xona
V xona
Bozgo'y
attacca

SAQIL I




49
Bozgo'y
55
61
67
73
III xona
79
85
IV xona
91



Bozgo'y









V xona








Bozgo'y
attacca

SAQIL II



43



II xona









Bozgo'y









III xona









Bozgo'y







SAQILI KALON




43
49
II xona
55
61
67
Bozgo'y



III xona









IV xona








V xona
VI xona


VII xona
Bozgo'y



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Maqom so‘zining lug‘aviy ma’nosini nimani anglatadi?
2. Ansambl so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?
3. Fanning maqsad va vazifasi nimadan iborat?
4. Postanovka nima?
5. Shtrixlarni tushuntiring
6. Applikatura, pozitsiya nima?
7. Dinamik belgilarni tushuntiring
8. Asarning qanday bezak turlarini bilasiz?
9. Ijro mahoratini oshirish usullarini gapirib bering
10. Cholg‘uchining stulda o‘tirish qoidasini ko‘rsatib bering
11. Shashmaqom nima dtgani?
12. Shashmaqom necha qismga bo‘linadi?
13. Shashmaqomni nomlarini sanab bering
14. Shashmaqomga kim asos slogan?
15. Qanday qochirimlarni bilasiz?
16. Nolalarni sozingizda bajaring
17. Nolish qanday bezak?
18. Kashishni sozingizda bajaring
19. Molish qanday bajariladi?
20. To‘lqinlantirish qanday amalga oshiriladi?
21. Ritmni tushuntiring
22. Qadimgi doira usullarining nomlarini aytib bering
23. Tovushlarni bir-biriga bog‘lash yo‘llari qanday bajariladi?
24. Musiqa nechta tovushdan iborat?
25. Nechta nota chizig‘i bor?
26. Notalarni nota chiziqlariga joylashtiring
27. Jo‘rnavoz va jo‘rovozni farqini tushuntiring
28. Doiraning nota chizig‘ini tushuntiring
29. Pozitsiya nima?
30. Repertuar nima?
31. Kompozitor va bastakor deb kimlarga aytiladi?
32. O‘zbekiston kompozitorlaridan kimlarni bilasiz?
33. Aliqambar kuyining muallifi kim?
34. Tamanno kuyi kimning asari?
35. Guluzorim kuyini kim yaratgan?
36. Glossariy nima?
37. Pianissimo qanday ijro etiladi?
38. Piano qanday ijro etiladi?

39. Forte qanday ijro etiladi?
40. Mumtoz kuylar deganda nimani tushunasiz?
41. O‘zbek milliy cholg‘u asboblarini sanab bering
42. Creshcendo qanday amalga oshiriladi?
43. Diminuendochi?
44. Sforsando ni tushuntiring
45. Qanday xalq kuylarini bilasiz?
46. Usta Olim Komilov Kim bo‘lgan?
47. Doira sozi qanday sozlanadi?
48. Rubob sozi xaqida so‘zlab bering
49. Nai sozining kelib chiqish tarixini gapiring
50. Ud sozi qanday sozlanadi?
51. Chang sozi nechta tordan iborat?
52. Gijjak sozi ustalaridan kimlarni bilasiz?
53. To‘xtasin Jalilovning hayoti va ijodi haqida so‘zlang
54. Sato sozi haqida nimalarni bilasiz?
55. Dutor sozining tarixini bilasizmi?
56. Qonun sozi qanday sozlanadi?

GLOSSARIY

Akkord - Italiyan tilidan olingan bo‘lib, birdamlik ma’nosini anglatadi. Turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib, yaxlit xolda yangrashidir.

Akustika - Yunon tilidan olingan bo‘lib, tinglashga oid tushunchadir. Teatr, konsert zallarida tovushlarni binoning har bir barobar eshitilishidir. Fizika fanida tovushlarning kelib chiqishini o‘rganuvchi soha.

Aksent - Lotin tilidan urg‘u, ta’kidlash degan ma’nolarni bildiradi. Biror tovush yoki akkordni qattiq ijro etishdir

Ansambl - Fransuz tilidan birgalikda degan ma’noni anglatadi. Ma’lum bir asarni bir nechta ijrochi tomonidan ijro etilishi ansambl deyiladi.

Artikulyasiya - nemis tilidan mayda bo‘laklarga bo‘laman degan ma’noni anglatadi. Sozandalar ovozida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari. Barcha shtrix harakatlari orqali (ma’lum kuy jumlasi yoki frazasida) erishilgan natijalar yig‘indisi bo‘lib, muayyan shtrixlar asosida asarning barcha ifoda vositalari (temp, ritm, dinamika, registr)ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini ta’minlashiga artikulyasiya deyiladi.

Sezgi - inson organizmi tomonidan eshitish, ko‘rish, hid bilish, tana sezgisi, ta’m bilish va h.k. a’zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi. Idrok: Narsalar yoki hodisalarning sezgi a’zolariga bevosita ta’siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O‘z ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi. Tasavvur bilimning ibtidosi bo‘lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo‘ladi va tafakkurdan farqli o‘laroq ijrochi hayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo‘lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir.

Registr - Lotin tilidan ro‘yhat ma’nosini anglatadi. Ma’lum bir qism tovushqatorining ikkinchisi bilan qo‘shilishi registr almashinuvi deyiladi. Sozandalar ovozida va asarlarda uch qismga ajratiladi; pastki registr (ovozning daromadi), o‘rta registr (miyonxat va kichkina avj qismlari), yuqori registr (dunasra va avj qismlari) deb yuritiladi.

Repertuar - ijro dasturi - barcha sozanda va sozandalarning biladigan va ijro eta oladigan ja’mi asarlari. His, tuyg‘u va hayajon (emotsiya): Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan

doimo muloqotda boʻladi. Buning natijdasida shodu-xurramlik, qaygʻu va gʻam, toʻlqinlanish va hayajon, magʻrurlik va iftixor, jahl va gʻazab, hayratlanish, xafa boʻlish kabi boshqa koʻplab mayil va tuygʻu (obyektiv dunyoga subʼektiv munosabat kechinmalari)lar insonning emotsional hishayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya - (tuygʻu kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga boʻlinadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, toʻlqinlanish va hayajon, magʻrurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qaygʻu va gʻam, jahl va gʻazab, xafa boʻlish kabilaridan tashkil topadi.

Musiqiy ifoda vositalari - tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), oʻlchov, surʼat, agogika, artikulyasiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi. **Garmoniya** - Yunon tilidan bogʻlanish, ohangdoshlik degan maʼnolarni anglatadi. Bir yoʻla eshitilgan bir necha tovushlarning oʻzaro ohangdoshligidir. Diqqat - musiqa sanʼatida ijrochining hissiy, intelektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bogʻliq boʻlib, ayniqsa jamoa boʻlib ijro qilishda u juda muhimdir. Yaʼni ansambl boʻlib avval doirachining koʻtarilgan qoʻllari, auftakt, yakkaxon va joʻrnavoz oʻrtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi. Urma torli cholgʻular ijrochilik vositalari: sozandaning oʻng va chap qoʻllari yoki noxun (kastab-arabchada) choʻp, maxsus sozlanadigan kalit, barmoqlar harakati, musiqiy eshitish vositalaridan tashkil topadi.

Tovush - fizik hodisa boʻlib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi taʼsir natijasida mexanik harakatga kelishi - tebranishi natijasida hosil boʻladigan jarayondir. Tabiatda qulogʻimiz ilgʻaydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularnig hammasini ham musiqiy tovush deb boʻlmaydi.

Musiqiy tovush oʻzining toʻrt xossasi:

a) bir-biriga nisbatan baland pastligi,

b) tusi (tembri),

v) davomiyligi, yaʼni choʻzimi,

g) kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

Intonatsiya - (lotincha - baland, yuqori): Uning tozaligiga erishish uchun avvalo sozandaning cholgʻu asbobi sifatli ishlangan va chalinib tajribadan oʻtgan boʻlishi kerak. Bundan tashqari tovushning toza chiqishi ijrochining mahoratiga va kayfiyatiga ham bogʻliq. Shuningdek, cholgʻudagi qoʻshimcha pardalar (dopolnitelnaya applikatura) ni

qo‘llash orqali ham tovushni past yoki balandligini muvofiqlashtirish mumkin.

Tovush tembri (tembr fr. - tovush bo‘yog‘i, tusi, xarakteri) tovush sifatining muhim omillaridan bo‘lib, har bir inson ovozi va cholg‘u asbobi tovushiga xos xususiyat.

Vibrato - to‘lqinlatish, tovush nolasi: tovush sifatini boyituvchi omillardan bo‘lib, u tovushga o‘ziga xos joziba baxsh etadi va go‘yo uni qizdirib jonlantiradi. Tovush kuchi: Tebranish harakatinig kengligi va kuchiga bog‘liq. Ya’ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqyosi - amplitudasi qancha keng va kuchli bo‘lsa tovush ham shuncha kuchayadi.

Dinamik o‘zgarishlarni uch asosiy guruhga taqsimlanadi:

a) turg‘un, ya’ni o‘zgarmaydigan;

b) asta-sekin o‘zgaruvchan, pog‘onama-pog‘ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): pp-p-mp-mf-f-ff kuchliga va aksincha kuchlidan ff-f-mf-mp-p-pp susayib boruvchi;

v) qarama - qarshi - tafovutli (kontrastnыy) p-f, pp-ff va unga aloqador urg‘ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi. Ijrochilik texnikasi: Barmoqlar harakati, o‘ng va chap qo‘llar xarakati, bilaklarni xarakatchanligi, yumshoqligi kabi omillar kiradi.

Ijrochilik holati: cholg‘u sozida qanday o‘tirish, uni chalishga hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar,) tayyor bo‘lish tushuniladi. **Shtrix** - (nemis. - chiziqcha, chizgi) rassomlarda yo‘g‘on, ingichka, qalin, to‘q chiziqchalar muayan portret obrazini ochib berganidek musiqada ham obraz yaratish uchun shtrixlar mavjud. Shtrixlar dastlab torli - kamonli cholg‘ularda, asosan skripkachilarda kamonni yurgizishda turli uslublar qo‘llanila boshlagan. Damli cholg‘ular ijrochilari ham ko‘pchilik shtrixlarni skripkachilardan o‘rganganlar. Shuningdek, urma torli cholg‘ularning o‘ziga xos shtrixlari ham kelib chiqa boshlagan.

Col legno - (yog‘och qismi bilan) torni cho‘pning yog‘och qismi bilan urib chalish. O‘ng va chap qo‘llar harkati ishtirokida har bir tovush etarli darajada cho‘zib alohida ijro qilinadi.

Detache - detashe - (fransuzcha detacer - alohida degan ma’noni bildiradi) Har ikki qo‘lning oddiy harakati ishtirokida erishiladi. Urma torli cholg‘ularda(chang va qonun), urib chalinadigan bittalik zarb. Har bir tovush etarli darajada cho‘zib alohida ijro qilinadi.

Marcato - markato (italncha «macare» - ajratib koʻrsatish, urgʻu berish) - urma torli sozning keskin zarblari ishtirokida kuch bilan urgʻu berilgan tovushlar chalinadi.
Staccato - stakkato (italyancha alohida, qisqa-qisqa degan maʼnolarni bildiradi) u har ikki qoʻlning keskin lekin tez va engil uriladigan zarblari natijasida har bir tovush yarmigacha qisqartirib chalinadi.
Staccatissimo - stakkatissimo - stakkatoga qaraganda ham qisqa (yozilgan tovush choʻzimining toʻrtdan biriga qisqaradi) va staccatissimo yozuvi bilan ifodalanadi. **Martele - martele** (fransuzcha «marteler»-choʻkichlamoq, zarb urmoq) bunda tovushlar oʻng va chap qoʻllar oʻtkir zarbi va kuchli tovush chiqarish bilan bir xil dinamikada alohida boʻrttirib chalinadi.
Tenuto - tenuto - oʻng va chap qoʻllarning qattiq zarblari yordamida, ammo urgʻu bermasdan har bir tovush oxirigacha choʻzib ijro qilinadi.
Non legato - non legato - har ikki qoʻlning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir-biriga bogʻlanmasdan chalinadi.
Portato - portato - oʻng va chap qoʻllarning yumshoq harakati natijasida tovushlar choʻzibroq bir-biriga bogʻlangan holda ijro qilinadi.
Portamento - portamento - vokal ijrochiligi tajribasidan olingan shtrix boʻlib, tovushdan tovushga engil, nozik sirpanib oʻtishni ifodalaydi.
Rrang - rrang - changda chap qoʻlni yumshoq -moʻʼtadil holatda, oʻz holicha kerakli simga yoʻlantirib, oʻng qoʻl bilan esa qattiqroq asosiy simga zarb urish natijasida amalga oshiriladi. Bu shtrix ustoz Faxriddin Sodiqov ijro uslubida shakilandi va goʻzal bezaklardan biri deb tan olindi.
Pirrang - pirrang - Pirrang shtrixida toʻrta zarb boʻladi. Toʻrtinchisi chap qoʻlda tugaydi. Forshlaglar chap qoʻldan boshlanadi. Chap qoʻl kuchli xissaga toʻgʻri keladi. Chap qoʻl yetakchi. Bu chang cholgʻusiga hos amaliyotda keng qoʻllaniladigan bezakdir. Odatda, mazkur bezak anʼanaviy ijrochilikdagi mavjud barcha cholgʻularda ham keng qoʻllaniladi. Changda esa, oʻziga hos xususiyatli tomonini toʻlaroq namoyon etadi. Yaʼni, bezak sifatidagi harakterni chang cholgʻusida ochib berish, boshqa cholgʻularga nisbatan qulayroq va mosdir.
Tremalo-tremalo (rez) - choʻplarning va noxunlarning torlarga tez -tez va uzuluksiz almashtirib urilishi.
Legato-legato - birinchi tovushidan boshqa tovushlari oʻng va chap qoʻllar zarbi-attaka ishlatilmaydigan shtrix (italyancha bogʻliq degan maʼnoni bildiradi). Bu shtrixda birinchi zarbni berib boshqalarida ishtirok etmaydi va tovushlar bir-biri bilan uzluksiz bogʻlanib keladi.

Legatissimo - tovushlarning yanada koʻproq bogʻliqligini talab qiladigan shtrix. **Glissando - glissando** - kuyning sirpanchiq harakati.
Artikulyasiya - barcha shtrix harakatlari orqali (maʼlum kuy jumlasi yoki frazasida) erishilgan natijalar yigʻindisi boʻlib, muayyan shtrixlar asosida kuyning barcha ifoda vositalari (temp, ritm, dinamika, registr)ning ham mutanosib va muvofiq ravishdagi ishtirokini taʼminlashiga artikulyasiya deyiladi.
Zarb arabcha - urmoq, urish maʼnosini bildiradi va mazkur cholgʻularda asosan choʻp va tayoqchalar yordamida zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi.
Membranafon - qoplamali cholgʻular, ularga maxsus teri yoki plastik qoplangan baraban, nagʻora, doira, tom-tom, litavralarning turlari kiradi.
Avtofon - oʻzi tovush beruvchi cholgʻular boʻlib, ularning vujudiga mexanik taʼsir qilish natijasida oʻz tanasidan tovush hosil boʻladi. Bular: turli tarelkalar, qayroq, safoyil, uchburchak (treugolnik), quticha (korobka), ksilofon va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017- yil, 16-yanvar, № 11.
2. Qosimov R., “An’anaviy tanbur ijrochiligi”, T., 2002.
3. Nurmatov X., “Qashqar rubobi”, T., 2003.
4. Yo‘ldashev T., “Ud darsligi”, T., 2008.
5. Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. Тошкент: Фан, 1967. 100 б.
6. Ибн Сино. Свод науки о музыке. пер. А.В.Сагдеева. Музыкалная эстетика стран Востока. –Москва: 1967. -126 б.
7. A.Odilov O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1995. 8-b
8. Abdullayeva S.Современные азербайджанские музыкальные инструменты. Баку, 1984 й,,5-бет
9. A.Odilov O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1995. 12-b
10. A.Odilov O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1995. 19-b

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Y. Rajabiy “O‘zbek maqomlari” (Shashmaqom) “Print-S” matbaa nashr. Toshkent, 2007-y.
2. O. Matyoqubov “Shashmaqom saboqlari” Toshkent YUNESKO tamg‘asi ostida 2007-y.
3. O. Matyoqubov “O‘zbek notasi” Toshkent YUNESKO tamg‘asi ostida 2007-y.
4. A.Umarov “O‘zbek xalq cholg‘ulari” Toshkent, 2004-y.
5. Sh.Dadaev “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” Toshkent, 2005-y.
6. N.Qosimov “Musiqa folklor ijrochiligi” T. 2003y.
7. Sh.Umarov “Folklor cholg‘u ijrochiligi” T.2008-y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sultonmurod Olim “Istiqlol - baxtim soadatim” Toshkent, “O‘zbekiston” Milliy kutubxonasi nashr. 2007-y.
2. R.Xo‘jayev “Ayol qalbi navolari” Toshkent, 2005-y.
3. R.Yunusov “Faxriddin Sodiqov” Toshkent, 2005-y.
4. R.Nosirov “Soz bilan suhbat” Toshkent, 2007-y.
5. A.Xoltojiyev “An’anaviy qonun cholg‘usi ijrochiligi” Toshkent, 2005-y.

6. O.Matyoqubov “Maqomot” “Musiqa” nashriyoti, Toshkent, 2004-y.
7. T.Yuldoshev “Ud saboqlari” Toshkent “FAN” 2009-y.

Internet va Ziyonet saytlari:

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.atmuzik.ru
5. www. muzik.uz
6. www. classicmuzik.uz
7. www. ziyonet.uz
8. www.rizanova.uz
9. www.nota.ru

MUNDARIJA

1. Kirish ……...3
2. XX asrgacha bo‘lgan davrda o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati ……... 6
3. Cholg‘ularni sozlash …… 13
4. Umumiy ijroda uyg‘unlikka erishish ……... 16
5. Etyud, gamma va tovushqatorlar, musiqiy asar ustida ishlashda nota yozuvi va eshitish usullaridan foydalanish …… 18
6. Musiqiy tovush sozi va sofligi …… 27
7. Ansambl cholg‘ulari tarkibi …… 29
8. Musiqiy asarlar va ular ustida ishlash …… 49
9. Mashg‘ulotlar davomida interfaol usullardan foydalanish ……. 54
10. Amaliy qism …… 57
11. Mustaxkamlash uchun savollar 229
12. Glossariy 231
13. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 236

СОДЕРЖАНИЕ

1. Введение ……... 3
2. Исполнительское искусство на узбекских народных инструментах до XX века ……... 6
3. Настройка инструментов …… 13
4. Достижение согласованности при общем исполнении……... 16
5. Этюды, гаммы и громкоговорители, использование приемов конспектирования и прослушивания при работе над музыкальным произведением ……. 18
6. Звучание и чистота музыкального звучания…… 27
7. Состав ансамбля …… 29
8. Музыкальные произведения и работа над ними…… 49
9. Использование интерактивных методов на уроках ……. 54
10. Практическая часть ……. 57
11. Вопросы для закрепления 229
12. Глоссарий 231
13. Список использованной литературы 236

RAFIK AXMEDOV

SOZANDALAR ANSAMBLI

Badiiy Muharrir: X. Ismoilov
Texnik Muharrir: R.Axmedov
Sahifalovchi: S.Rahimova

Bosishga ruxsat etildi: 2023 y. Nashriyot bosma tabog‘i –15.
Shartli bosma tabog‘i – 7,5. Bichimi 84x108 1/16.
Adadi 100.
«Poligraf Super Servis» Mchj
150114,Farg‘ona Viloyati, Farg‘ona shahar,
Aviasozlar ko‘chasi 2-Uy.